



YURTIMIZ BO‘YLAB



OPPOQ KO‘KSI EZGULIKKA TO‘LGAN EL

1

**Bo‘lmadi hech yerda manzil-makonim,
Zahr-u zaqqum bo‘ldi ichgan-yeganim,
Aysam-da, bo‘lmadi mening deganim,
Kuygandan jon qiyналur xalq uchun...**

Berdimurot Qarg‘aboy o‘g‘li — Berdaq boboning yuragidan sizib chiqqan bu og‘riqli “oh”lar qalblardan qalblarga ko‘chib, aks sado berganda o‘zbeklar va qoraqalpoqlarning ko‘nglidan nimalar kechmagan deysiz...

Bundan qariyb 200-yil burun — 1827-yilda aynan Mo‘ynoqda dunyoga kelgan shoirning ushbu mahzun satrlari Prezidentimizning 2019-yil 20-avgustda qoraqalpoq zaminida aytgan mana bu so‘zlarini yodimga tushirdi: “Men Sizlar bilan uchrashganda, Sizning qizg‘in qarsaklaringizni sog‘inib emas, Sizlarning ko‘zlaringizdagi quvonchini ko‘rishga keldim. Sababi, tarixdan yaxshi ma‘lum, qoraqalpoq xalqi o‘tmishda hamma vaqt qayg‘u-alam, og‘ir dard bilan kun kechirgan”.

Davlatimiz rahbari bu so‘zlarni bejiz aytmagan edi. Buni qoraqalpoq xalqining o‘tmishini yaxshi bilgan, dardu tashvishlarini dildan his qilgan odam aytishi mumkin edi. Zero, har bir xalqning uzun tarixi, bosib o‘tgan yo‘li, boshdan kechirgan issiq-sovuq kunlari bor. To‘fonu bo‘ronlar girdobida toblanib-chiniqmagani elat ham, millat ham yo‘q bu dunyoi dunda. Ammo hech kim qoraqalpoqchalik achchiq izg‘irinlarga duch kelmagan, hech kim qoraqalpoq kabi ko‘z yoshi to‘kmagan bo‘lsa kerak.

Kechmishi miloddan avvalgi asrlarga borib taqaluvchi bu elat xalq bo‘lib shakllangandan boshlab qayg‘uli damlarga yuzma-yuz kelaverdi: zo‘ravonlar qutqusiga uchradi, bir manzilda qo‘nim topolmadi, ko‘cha-ko‘ch, qocha-qoch deyilmish tahlkalar ostida umrguzaronlik qilishga majbur bo‘ldi. Orol bo‘ylarida baliqchilik, chorvachilik bilan tinchgina yashab yurgan, ilk manbalarda “qora bo‘rkli”, mo‘g‘ullar istilosi davrida “qavmi kulohi siyah” deb atalgan qoraqalpoqlarni Chingiz lashkari rus cho‘llariga haydadi.

“Qoraqalpoqlar bir yurtda yuz yil makon qilmadi, ko‘chib yurib, ko‘pchiligi yo‘lda o‘ldi”, deya faryod urdi u qora kunlarni eslagan shoir Berdaq bobo.

Bir muddat Kiyev Rusi dashtlari, Volga — Ural oralig‘lari, keyin Irtysh sohillarida omonat kun kechirgan qoraqalpoqlar Oltin O‘rda tarkibida No‘g‘ay xonligini tuzdi. Ammo sal o‘tmay, shimollik yog‘iylar tazyiqiga uchrab, Turkistonga haydaldi. Qozoq xoni Abulxayrxonning zo‘ravonligidan keyin Xiva xonligi tarkibidagi og‘ir hayot, Yernazar Olako‘z, Aydos biy, Begis va Mirjiq kabi botirlarning ozodlik yo‘lida jon bergani — bularning har biri azobli doston, qayg‘uli bir kitob.

Keyin Sariqamish, O‘zbo‘y, Sayxun bo‘ylarida kun kechirgan xalq nihoyat Yer yuzining yarmini aylanib-aylanib, XVIII asr o‘rtalarida, ne-ne mashaqqatlar bilan yana Jayxun sohillariga qaytib keldi. Ota makoniga keldi. Biroq ko‘ch-ko‘chlar bo‘ronida necha minglab o‘g‘il-qizidan erta ayrilgan “qora bo‘rkli”larning manglayiga

osoyishta damlar hali yozilmagan ekan: yana quv-quvlar, hayda-haydalar, urushlar, qon to‘kishlar sho‘rish soldi...

Gapirsang tiling, gapirmasang diling kuyadi. Chor Rossiyasi istilosi va sho‘rrolar zamonida goh Rossiya, goh Qozog‘iston tarkibiga o‘tkazib-qaytarilgan “qavmi kulohi siyah” nihoyat O‘zbekiston bilan bir davlat, bir mamlakat maqomiga ega bo‘lgandan keyingina azaliy orzulari — ona zaminida muqim yashash baxtiga musharraf bo‘ldi. Ming afsuski, bu baxt ham hali chala ekan. Yetmish yillik sho‘ro tuzumi bu elni nafaqat o‘zligidan butkul ayirdi, balki ochofat bosqinchilarning paxtadan oq, sholidan sariq oltin olish talvasasi, xalqni boyitish haqidagi cho‘pchaklarga yo‘g‘rilgan talonchiligi xalqqa qo‘shib Yer yuzidagi yirik dengizlardan biri bo‘lgan Orolning ham boshiga yetdi. Uning chekinishi, million tonnalab zaharli, tuzli chang-to‘zonning osmonga ko‘tarilishi ona tabiat ko‘ksiga bolta urdi, dengiz bo‘ylarida umrguzaronlik qilayotgan elning genofondini og‘uladi.

Mazkur fojia ko‘lamini his qilganlar “Tixiy Chernobil” — “Sokin Chernobil”, deya olamga jar soldi.

Biroq tani boshqa — dard bilmas. Hukmdorlar Orolni qutqarish, umrini dengiz bilan bog‘lagan, dengizni Ona deb ulug‘lagan zahmatkash elga g‘amxo‘rlik qilish o‘rniga ularni Uzoq Sharqning Ussuriysk tomonlariga ko‘chirmoq rejasini tuzdi.

Davomi 3-betda



O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING PRAGMATIK TASHABBUSLARI MARKAZIY OSIYO VA ITALIYA O‘RTASIDAGI KO‘P TOMONLAMA SHERIKLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASHDA STRATEGIK AHAMIYATGA EGA

XORIIYIY EKSPERTLAR DAVLATIMIZ RAHBARINING OSTONA SAMMITIDAGI TASHABBUSLARI HAQIDA

**O‘zbekiston Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev 30-may kuni
Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan
“Markaziy Osiyo — Italiya” sammitida
ishtirok etdi.**

O‘zbekiston yetakchisi mazkur sammitdagi nutqi avvalida ushbu tadbir joriy yil aprel oyida Samarqandda o‘tgan sammitda Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasida erishilgan strategik sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvlarning uzviy davomi ekanini ta’kidladi.

Shuningdek, O‘zbekiston rahbari “Markaziy Osiyo — Italiya” formatidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z qarashlarini bayon etdi.

Qator dolzarb xalqaro masalalar yuzasidan yondashuvlarni muvofiqlashtirish uchun tashqi ishlar vazirliklari darajasida muntazam muloqotlarni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi. Shuningdek, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, giyohvand moddalar savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashda ko‘p tomonlama sheriklik va maxsus xizmatlarning axborot almashish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish taklif etildi.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo — Italiya” sammitidagi nutqida ilgari surilgan global tashabbuslarga xalqaro ekspert va tahlil doiralari vakillari tomonidan katta qiziqish bildirilmoqda. Ekspertlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ostona sammitidagi nutqida qayd etilgan takliflar nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari va Italiya uchun, balki keng ma’nodan butun Yevroasiyo makoni uchun ham muhim geosiyosiy va geoeqtisodiy ahamiyatga ega ekanini ta’kidlamoqda.

Davomi 2-betda



Faxr va g‘urur

BUYUK ZIYORAT

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

Allohning uyi bu — mangu imorat,
Davom etar edi buyuk ziyorat.

Mayli, sadqa aylay borim-budimni,
Balo-yu qazodan asra yurtimni.

Eng qutlug‘ namozlar shunda o‘qilur,
Barcha xomxayollar o‘zi yo‘qolur.

Ko‘rdi qancha zulm-u qancha yomonlik,
Xalqimga baxt bergil, bergil omonlik.

Ka‘ba ham yaralgan buyuk ijodday,
Odam bolalari so‘nggi najotday —

Olam ahli bilan oshnolik bergil,
Eng avval elimga ro‘shnolik bergil.

Yuzma-yuz turgaydir Parvardigorga,
Axir shuncha duo ketmas bekorga.

Hukmdor yig‘lardi, so‘rab yig‘lardi,
Bu notinch dunyoga tinchlik tilardi.

Buyuk bir millatning olampanohi,
Muftiy hazrat yana uch-to‘rt hamrohi,

Muftiy hazratlari aytib istig‘for,
Yana o‘tinchini ayladi izhor:

Farz yugin yelkadan oshirib bo‘lgach,
Barcha ruכלarni bajarib bo‘lgach —

Meni afv etgaysiz, olampanohim,
O‘zingiz uchun ham so‘rang-da, shohim.

Oliy marhamatga noil bo‘ldilar,
Xudoning uyiga doxil bo‘ldilar.

Ziyorat vaqti ham qisqadir, illo,
O‘zingizga so‘rang, vallohu billo.

Shu zayil boshlandi buyuk munojot,
Buyuk ibodat bu, buyuk muloqot.

Ammo davlatpanoh, zoti muhtaram,
Duo qilar edi shundoq bokaram:

Bandalar gar ranju riyozat tortgay,
Bunda bor duolar ijobat topgay.

Yurtimning jamiyki farzandlarini,
O‘g‘il-qizlarini, dilbandlarini,

Har kimga buyurmas masjid ul harom,
Buyuk sharaфdir bu, buyuk ehtirom.

O‘zing panohingda asragil doim,
Baxt-u toleini bergil, Xudoyim.

Baytulloh ilohiy qadim sukunda,
To‘rttala tomon ham qibladir bunda.

Muftiy hazratlari lolu betoqat,
Darrov o‘tib ketdi g‘animat fursat.

Muftiy hazratlari aytardi takbir,
Hamrohlar qo‘shilib takrorlar bir-bir.

Quloqlarda yangrar muborak kalom,
Ziyorat tugadi, ibodat — tamom.

Mamlakat sarvari, ulug‘ hukmdor,
Ko‘zlari jiqqa yoshi, takror va takror,

Bu bir rivoyatmas va yo hikoyat,
Sayohat ham emas va yo siyosat.

Duo qilar edi qayta-qaytalab,
Eng avval Xudodan iltijo aylab,

Yangi zamonlarning qissasi shuldird,
Alqissa, qissaning hissasi shuldird:

Ota-onasiga rahm so‘rardi,
Mag‘firat so‘rardi, afv so‘rardi.

Ey, ko‘hna dunyoga keltirgan bahor,
Buxoriyni bergan, ey qadim diyor.

O‘tib ketgan ne-ne ulug‘ zotlar ham
Mehru karamingga muhtojdir, egam.

Ufqlarga qadar qirmiz izlarimg,
Hamon hadis so‘ylar Termiziyilaring.

Hukmdor yig‘lardi birma-bir eslab,
O‘tgan ustozlarin afvini so‘rab.

Ming bor sadqa bo‘lsin jonim va tanim,
Shunday zotlaringga, jonim Vatanim!

Muftiy hazrat yana bo‘ldi betoqat,
Asta so‘ramoqqa topoldi jur‘at:

O‘zing barchamizga shijoat bergil,
Olampanoh yanglig‘ matonat bergil.

Ka‘ba eshiklari bizga ochiqdur,
O‘zingiz uchun ham duo vojibdur.

Toki ona yurtim topsin oroyish,
Elatlar, millatlar ko‘rsin osoyish.

Yaratgandan tilang, so‘rang inchinun —
O‘zingiz uchun ham, o‘zingiz uchun.

Davr-u davronlari toabad bo‘lsin,
Barcha duolari ijobat bo‘lsin.

Ammo olampanoh, fотиhi davron,
Allohdan so‘rardi yollaborib, giryon:

Ulug‘ niyatlarga qo‘shilib men ham,
Yozdim bilganimni, vallohu a‘lam.

BOLAJONLARGA UNUTILMAS TAASSUROT ULASHGAN BAYRAM TADBIRI



2



O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING PRAGMATIK TASHABBUSLARI MARKAZIY OSIYO VA ITALIYA O‘RTASIDAGI KO‘P TOMONLAMA SHERIKLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASHDA STRATEGIK AHAMIYATGA EGA XORIIY EKSPERTLAR DAVLATIMIZ RAHBARINING OSTONA SAMMITIDAGI TASHABBUSLARI HAQIDA



Boshlanishi 1-betda

Usmon SHAVKAT,
Ravalpindi savdo-sanoat palatasi
rahbari (Pokiston):



— O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo — Italiya” sammitidagi nutqida mamlakatning Yevropa davlatlari bilan olib borilayotgan faol tashqi siyosatining mantiqiy davomi hisoblanuvchi tashabbuslar ilgari surilgan.

O‘zbekiston rahbari o‘z nutqida qayd etgan siyosiy, iqtisodiy va gumanitar hamkorlik yo‘nalishlari ko‘p tomonlama manfaatlariga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Bu esa nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari va Italiya uchun, balki keng ma‘noda butun Yevroosiyo makoni, jumladan, Pokiston uchun ham muhim geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston tomonidan bildirilgan xavfsizlik, terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya va narkotrafikka qarshi kurashishda italiyalik sheriklar bilan ishchi mexanizmlar va axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish taklifi mintaqada barqarorlikni ta‘minlash nuqtayi nazaridan o‘ta muhim ahamiyatga ega. Bu masalalar Pokiston

xavfsizligi uchun ham juda dolzarb. Afg‘oniston muammosi Yaqin Sharqdagi murakkab vaziyat kontekstida bugungi kunda yanada o‘tkirlashmoqda. Shu jihatdan “Markaziy Osiyo — Italiya” formatidagi muloqot Pokiston uchun ham alohida mazmun kasb etadi.

Bu borada “Markaziy Osiyo — Italiya” formati Islomobod uchun ham yangi imkoniyatlar ochmoqda. O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasi, investitsiyaviy aloqalar va “yashil” transformatsiya sohasidagi tashabbuslar alohida e‘tiborga loyiq. Bu yo‘nalishda erishilayotgan natijalar xorijiy mamlakatlar uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoatni modernizatsiyalash va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish borasida foydali va alohida tajriba maktabini o‘tadi.

O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo — Italiya” ishbilarmonlar klubini tashkil etish, Markaziy va Janubiy Osiyoning mintaqaviy o‘zaro bog‘liqligi tashabbusi doirasida loyihalarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarni shakllantirish to‘g‘risidagi taklifi hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni tizimli yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta‘lim, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik yuzasidan bildirilgan fikrlar ham e‘tiborga molik. Akademik almashinuvlar va ilmiy-ta‘lim konsorsiumi tuzish tashabbusi mintaqada inson kapitalini rivojlantirish, Yevropa ilmiy salohiyati bilan yaqinroq integratsiyalashishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yoshlar forumi va kreativ iqtisodiyot sohasidagi madaniy almashinuvlar “yumshoq kuch” siyosatini kuchaytirish, davlatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va ishonch muhitini yaratishda muhim vosita vazifasini o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo — Italiya”

sammitidagi nutqi nafaqat mintaqaviy, balki keng xalqaro hamkorlik istiqbollari qamrab olgan. Ushbu format salohiyatidan to‘g‘ri foydalanilsa, Pokiston uchun ham siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida yangi imkoniyatlar ochiladi.

Yuriy SIGOV,
Rossiya davlat gumanitar universiteti
xalqaro munosabatlar kafedrası dotsenti:



— Sammitda “yashil iqtisodiyot”, investitsiyalar, innovatsiyalar, fan va ta‘lim sohalarida ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish muhokama qilingani asosiy masala bo‘ldi. Italiya, garchi so‘nggi yillarda mintaq davlatlari uchun iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiritilmagan bo‘lsa-da, hozirda vaziyat sezilarli darajada o‘zgarib boshladi.

Yangi texnologiyalar, energetika sohasida o‘zaro hamkorlik masalalari, ilmiy va ta‘lim almashinuvlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha qo‘shma korxonalar tashkil etish — bularning barchasi Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari, ayniqsa, O‘zbekiston uchun foydali hisoblanadi.

Ta‘kidlash kerakki, aynan Italiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi ishlar vazirliklari darajasida vazirlar uchrashuvlarini boshlab berdi. Italiyaning yuqori martabali mulozimlari Toshkent va Samarqandda tez-tez mehmon bo‘lib turadi. Bundan tashqari, o‘zaro tovar ayirboshlash sezilarli darajada o‘sdı — o‘tgan yili bu ko‘rsatkich 470 million dollardan oshdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Prezidentining 2023-yilda Rimga tashrif arafasida y erda yirik biznes-forum bo‘lib o‘tganini eslatib o‘tmogchiman. Mazkur biznes-forum ilk bor ikki mamlakat ishbilarmonlariga o‘zları uchun muhim bo‘lgan masalalarnı bevosita hal etish, ishonchli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish imkonini berdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Italiya investitsiyasi ishtirokidagi 55 ta qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda va o‘ylaymanki, Ostonada bo‘lib o‘tgan sammit mazkur formatdagi hamkorlikni faollashtirishga xizmat qiladi hamda italyan kompaniyalari uchun manfaatli bo‘ladi.



Jiang LAN,
Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l”
tashabbusi huzuridagi Guanchjou savdo
institutining Sharqiy Yevropa va Markaziy
Osiyo tadqiqotlari instituti rahbari,
“Central Asia Think Tank” kompaniyasi
rahbari, professor:
— O‘zbekiston Prezidentining Ostona
shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo —
Italiya” sammitidagi nutqi xalqaro hamjamiyat
tomonidan yuqori baholanmoqda.

“
Mamlakatingiz
rahbarining iqtisodiy,
ekologik va sanoat
bo‘yicha tashabbuslarni
ilgari surishi, global
va mintaqaviy
xavfsizlikni ta‘minlash
masalalari borasidagi
mazmunli va amaliy
takliflari Markaziy
Osiyo davlatlarining
Italiya bilan har
tomonlama hamkorligini
chuqurlashtirishda
strategik ahamiyatga ega.
”

O‘zbekiston Prezidentining mineral resurslar va qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, elektrotexnika, kimyo, to‘qimachilik, charm sanoati uchun zamonaviy uskunarlar ishlab chiqarish bo‘yicha sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishga qaratilgan takliflarini alohida ta‘kidlab o‘tish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, butlovchi qismlar bazasi va sanoat tovarlarini mahalliyashtirish, yetakchi italyan brendlari ishtirokida dizayn markazlarini yaratish muhimligi qayd etildi.

O‘zbekistonning ushbu taklif va tashabbuslari samarali amalga oshirilishi xalq, biznes vakillari, ilmiy jamoalar uchun manfaatli bo‘ladi hamda hududlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

“Dunyo” AA



Hech kim mehr va
e‘tibordan chetda emas

BOLAJONLARGA UNUTILMAS TAASSUROT ULASHGAN BAYRAM TADBIRI

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni O‘zbekistonda har yili o‘zgacha ruh va ko‘tarinki kayfiyatda nishonlanadi. Bunga O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi ham munosib hissa qo‘shmoqda. Xususan, federatsiya tomonidan yurtimizning turli hududlarida “Yangi O‘zbekistonning baxtiyor bolalari” shiori ostida bayram tadbirlari tashkil etilib, mehribonlik uylari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari, maxsus maktab-internatlar o‘quvchilari, xizmat vazifasini bajarish vaqtida halok bo‘lgan harbiylar va ichki ishlar idoralari xodimlari farzandlari, chin yetim va ehtiyojmand oilalar o‘g‘il-qizlarining ko‘ngillari ko‘tarib kelinmoqda.



Shunday tadbirlardan biri poytaxtimizdagi O‘zbekiston kasaba uyushmalari saroyida o‘tkazildi. Federatsiya va Milliy gvardiya hamkorligida tashkil etilgan tantanali tadbirga Toshkent shahridagi 22- va 30-mehribonlik uylari hamda SOS — O‘zbekiston bolalar mahallalari Toshkent filialida tarbiyalanayotgan bolajonlar, Toshkent shahri, Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridagi oilaviy bolalar uylari farzandlari, jami 500 o‘g‘il-qiz taklif etildi.

Muhtasham saroyda bolajonlar harbiy orkestr va milliy musiqa jamoalari ijrosidagi kuylar sadosi ostida bayramona kutib olindi. Yosh avlod vakillariga peshvoz chiqqan turli etak qahramonlari ishtirokida tashkil etilgan madaniy tadbir esa bolajonlar quvonchiga quvonch qo‘shdi. O‘g‘il-qizlar turli shirinlik va salqin ichimliklar bilan mehmon qilindi.

Shundan so‘ng bolajonlar uchun O‘zbekiston kasaba uyushmalari saroyi huzuridagi “Qaldirg‘och” bolalar san‘at markazi o‘quvchilari ishtirokida Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, ya‘ni “Qush tili” dostoni asosida maxsus sahnalashtirilgan “Semurg‘ haqida afsona” musiqali spektakli namoyish etildi.

Kasaba uyushmalari saroyi ijodkorlari sahnalashtirgan mazkur spektakl orqali ko‘plab tarbiyaviy g‘oyalar ilgari surilib,

hozirgi kunda yoshlar tarbiyasida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan intiluvchanlik va qalb go‘zalligi, saxiy va mehribon bo‘lish oliy fazilatlari ekanı, ezigulikning yovuzlik ustidan doimo g‘alaba qozonishi tarannum etildi.

Spektakldan so‘ng bolajonlar Jamoat xavfsizligi universitetida bo‘ldi. Yosh avlod vakillari bayram dasturxoniga taklif etilib, madaniy tadbirda ishtirok etdi. Ushbu maskan bo‘ylab tashkil etilgan sayohat davomida o‘g‘il-qizlarga Milliy gvardiya faxriy qorovul qo‘shinlari, harbiy orkestr va otlıq askarlaming ko‘rgazmali chiqishlari namoyish etildi. Bularning barchasi bolajonlarda katta taassurot qoldirdi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan barcha hududlarda mehnatkashlar farzandlari, maxsus maktab-internatlar, kam ta‘minlangan, ko‘p bolali va boquvchisini yo‘qotgan oilalarda tarbiya topayotgan o‘g‘il-qizlar uchun xuddi shu kabi madaniy-ma‘rifiy va tantanali bayram tadbirlari tashkil etilib, bolajonlarga sovg‘alar topshirildi.

Muhabbat O‘RMONBEKOVA,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari
federatsiyasi matbuot
xizmati rahbari

Ijtimoiy himoya



Navoiy shahrida yashovchi Feruza Murtazoyeva ikki yildan buyon xastalik bilan kurashadi. Nogironligi bo‘lgan bu yolg‘iz ayolni shu vaqtga qadar o‘n ikki yoshli o‘g‘li parvarishlab keladi. Bu holat farzandining ta‘lim olishiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, bemor ona esa ham xastalikdan, ham o‘g‘lining qiynalayotganidan aziyat chekardi.

Ushbu oilaga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan ijtimoiy xodim assistenti biriktirilishi natijasida ularning mavjud muammolari bartaraf etildi. O‘zgarlar parvarishiga muhtoj bemorga uyda tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Ijtimoiy xodim assistenti xizmatiga qo‘shimcha ravishda shifokor va hamshiralarning ham biriktirilishi natijasida qisqa vaqt ichida ushbu ehtiyojmand oilaning ahvoli o‘nglandi. Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar tufayli Feruza Murtazoyevada funksional qayta tiklanish kuzatilmoqda.

Ayni vaqtda Navoiy viloyatida ijtimoiy

MUAMMOLAR YECHIMIGA YANGICHA YONDASHUV

himoyaga muhtoj fuqarolar bilan tizimli ishlash shu kabi xayrli ishlarga sabab bo‘lmoqda. Konimex tumanining Sho‘rtepa mahallasida yashovchi Aziza Bekmurodova oilasi vakillari ham ana shunday o‘zgarishlar tufayli bugun og‘ir ijtimoiy vaziyatdan chiqdi. Mahallada kompanis ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodim tomonidan oilaning sharoiti o‘rganilgandan so‘ng Kambag‘allik reyestriga kiritildi. Biriktirilgan rahbar bilan birgalikda oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha tegishli tadbirlar ko‘rildi. Jarayonda oila a‘zolari chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hisobidan kerakli dori-darmonlar bilan ta‘minlandi. Shuningdek, oila boquvchisi ishga joylashtirilib, farzandlari imtiyoz asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotiga joylashtirildi. Bundan tashqari, katta farzandining oliy ta‘limda o‘qishi uchun shartnoma pullarining 50 foizi to‘lab berildi. Hozir oilaning xonadoni ta‘mirlanib, tomorqasiga issiqxona qurib berilishi natijasida yashash sharoiti farovonlikka yuz tutdi.

Qiziltepalik Lobar Rizayeva 2021-yilda kuchli stress va hayotiy qiyinchiliklar sababli sog‘lig‘i yomonlashib, faol hayotdan uzoqlashgan edi. Taqdir sinovlariga taslim bo‘lgan, tushkunlikka tushgan fuqaroga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi yordamga keldi. Uning oilasi kompleks baholalib, xizmatlar rejası belgilandi. Xususan, fuqaro reyestriga kiritilib, ijtimoiy xodim assistenti biriktirildi. Natijada onasini parvarishlab kelgan farzandlari ta‘limga va to‘garaklarga jalb qilindi. Respublika va viloyat nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markaziga yo‘llanma berildi. “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan moddiy yordam ajratildi. Shuningdek, Lobar Rizayeva tikuvchilik kasbiga o‘rgatilib, tikuv mashinasi olib berildi.



— Hozir ahvolimiz, yashash sharoitimiz ijobiy tomonga o‘zgardi, — deydi Lobar. — Bemorligim sababli biror ishga yaramay qolgandim. Hayotdan ham umidimni uzganimda ijtimoiy xodim kelib, oilamizni ro‘yxatga olib ketgandi. Qisqa vaqt ichida har tomonlama ko‘mak berildi. Ijtimoiy xodim assistenti biriktirilgandan keyin farzandlarimga ham ta‘lim olishga ko‘proq vaqt ajratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Malakali shifokorlar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib, zarur muolajalar belgilangach, ahvolim yaxshi tomonga o‘zgardi. Mustaqil harakat qila boshladim va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi mas‘ullari ko‘magi bilan tikuvchilikka o‘qib, ayni vaqtda shu kasbim ortidan daromad topmoqdaman. E‘tibordan chetda emasligimiz tufayli yana hayotga qaytdim.

Ayni vaqtda Navoiy viloyatida tajriba-sinov tariqasida Keksalar reyestrıda turuvchi shaxslarga uyda tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu jarayonda viloyatdagi Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi tomonidan Navoiy shahrida yashovchi, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish darajasi Bartel va Lauton shkalalari bo‘yicha 0 ballidan 62 ballgacha baholangan 5 fuqaroga ushbu xizmatlar ko‘rsatilmoqda. Tajribada ijtimoiy xodim assistentlari xizmatiga qo‘shimcha ravishda shifokor va hamshiralardan tomonidan ko‘rsatilgan tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlari qisqa vaqt ichida samarasini ko‘rsatdi. Ya‘ni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlaridan foydalangan ushbu besh shaxsda sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Harakatlanish, ovqatlanish, yuvinish va kiyinish kabi zarur

individual vazifalarni bajarishda ularning mustaqillik darajasi ortdi, yo‘qotilgan funksionallik qayta tiklanishiga erishildi.

Misol uchun, nogironligi bo‘lgan va yolg‘iz yashaydigan Odil Zoirov yelka-tirsak va tizza bo‘g‘imlari kontrakturasiga qarshi yengil uqalash va bukiq-yozuvchi mashqlar, vibromassaj, qo‘l va oyoqlar uchun yengil gimnastika mashg‘ulotlari va yurish moslamasi yordamida qadam tashlashni o‘rgatish kabi ko‘rsatilgan tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlari natijasida bugungi kunda o‘zgalar ko‘magida yurishga va o‘tirishga harakat qilmoqda. Shuningdek, unda mustaqil ovqatlanish olish ko‘nikmasi shakllantirilmogda. Bu esa tajriba-sinov tariqasida olib borilayotgan tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlari yaxshi natija berayotganidan dalolat.

— Hududlarda ijtimoiy xodimlar ish boshlaganiga ko‘p bo‘lmagan esa-da, ijtimoiy xizmatlar mahalla darajasigacha tushirilishi natijasida o‘tgan yili sohaga oid 55 mingga yaqin murojaat kelib tushgan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi axborot xizmati rahbari Temur Boybekov. — Ushbu murojaatlar asosida o‘tgan yili 23,4 mingdan ortiq shaxsga 103 turdagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatildi hamda ularning 6 mingdan ortig‘iga keyslar ochildi. Natijada ijtimoiy yordam bo‘yicha murojaatlar soni 2023-yildagidan 2 mingga qisqargan. Shuningdek, mahallalarda kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar tomonidan uyda yotgan muhtoj 3,7 ming shaxs aniqlab, zarur yordamlar ko‘rsatildi. Xususan, 1,4 ming shaxsga nogironlik guruhlari belgilandi, 1,7 ming nafari protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta‘minlandi, nogironligi bo‘lgan 498 bola ta‘limga yo‘naltirildi, 165 kishi yolg‘iz keksalar reyestriga kiritildi.



Joriy yilda viloyatda nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish qamrovi va uning samaradorligini kengaytirish maqsadida viloyat Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazida 20 o‘rinli yangi bolalar ambulator reabilitatsiya markazi ishga tushiriladi. Markazda yiliga 500 bola sifati reabilitatsiya qilinadi. Buning natijasida viloyatda nogironligi bo‘lgan fuqarolarning reabilitatsiya bilan qamrovi 3 mingdan 3,5 mingga yetkazilishi ko‘zda tutilgan.

Albatta, har bir inson qalbidā kelajakka umid, ezu ishlarini boshidan tutib, uni bajara olishiga yuksak ishonch bo‘lsa, u o‘z maqsadiga erishadi. Zero, inson qadri ulug‘langan yurtimizda nogironligi bo‘lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar manfaatları doimo e‘tiborda ekanı yuqoridagi xayrli ishlarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

OPPOQ KO‘KSI EZGULIKKA TO‘LGAN EL

Abdusaid KO‘CHIMOV,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan yoshlar
murabbiysi

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroym Yusupov: *Xavotir bor, qoraqalpoqlar, Ko‘p uzamay ko‘char...*

degan so‘zlar bilan boshlanuvchi she‘rida qondoshlarining sinovlarga to‘la beorom o‘tmishiga mana endi Orol dardi ham qo‘shilgani, O‘zbekiston hududining 40 foizini tashkil qiladigan hudud, uning hayot manbai bo‘lgan dengiz, mehnatkash odamlar hayoti butkul xavf ostida qolganini alam bilan faryod urib yozdi.

Dengiz o‘rmda paydo bo‘lgan sahradan ko‘tarilayotgan to‘zon Antarktida sohillari, Grenlandiya muzliklari, Norvegiya o‘rmonlari, Yaponiya bog‘larigacha yetib borgan va Orol fojiasi dunyo fojiasiga aylanayotgan azobli kunlarda sobiq itifoq korchalonlari qoraqalpoqlarning dardiga malham bo‘lish o‘rniga, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ularni o‘z uyidan mosuvo qilish yo‘llarini izladi. Butun boshli elning kelajagi shu tarzda vaqt hukmiga tashlab qo‘yildi.

2

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingina ming yillik haqiqat asl o‘zaniga qaytdi. Qoraqalpoq eli o‘z zaminiga, bobomeros qo‘rg‘oniga ega bo‘ldi. Qoraqalpoq barcha O‘zbekiston dardiga aylandi, butun O‘zbekiston xalqi bir bo‘lib qondoshlari — jondoshlari dardiga shifo izladi.

Shavkat Mirziyoyev hali Prezidentlikka nomzod paytidayoq birinchi saylovoldi uchrasuvini aynan shu zaminidan boshladi. Xalq bilan uchrashdi, yuzma-yuz gaplashdi, qalbiga, dardiga, orzu-armonlariga quloq tutdi. Aslida, hududning mushkul ahvoli besh qo‘ldek ayon etdi unga. Bosh vazirlik chog‘larida ovulma-ovul yurgan Shavkat Mirziyoyev nomzodlik uchrasuvining o‘zidayoq o‘sha yillari hudud uchun eng og‘riqli bo‘lgan ichimlik suv ta’minotini yaxshilash, ko‘mir tanaraxini pasaytirish, aholining elektr energiyasidan foydalanishini yaxshilash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini modernizatsiyalash, onalik va bolalarni muhofaza qilish, pensionerlarga xizmat ko‘rsatishni kuchaytirish kabi 11 ta ustuvor vazifaga e’tibor qaratdi. Shu kundan e’tiboran qoraqalpoq diyorida boshlangan islohotlarning barchasi doimiy nazoratga olindi.

Davlat rahbarining mehru muhabbati, vatanparvarligi, elsevarligi minglab qalblarda egamenlik tuyg‘usini olovlantirdi, bilaklarga kuch, yuraklarga alpona qudrat bag‘ishladi. Xalq birlashdi — kuch bo‘ldi, irmoqlar tutashdi — daryo bo‘ldi. “Tirishqoqning chegasi toshga chega qoqadi” degan sharqona hikmat naqadar haqiqat ekani hayal o‘tmay o‘z natijasini ko‘rsatdi — ishonch bilan ekilgan nihollar dasturxonlarni shirin-shirin mevalar bilan to‘ldirdi. Muammolar birin-ketin barham topib, ovullarga chiroq, ko‘chalarga bahoriy nasim kirdi. Omborlarda don, dasturxonlarda non ko‘paydi. Iqtisodiyot o‘tdi, sanoat, qurilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, biznes va xususiy tadbirkorlik, sayyohlik sohalari qanot yozdi. Katta yo‘lga tushgan katta karvon qo‘ng‘iroqlari beadoq sahrayo cho‘llarni, dashtu dalalarni hayot qo‘shig‘iga to‘ldirdi.

Shu davrda, ya’ni so‘nggi 7-8 yilda Prezidentimizning qoraqalpoq o‘lkasini yuksaltirishga doir 14 ta farmoni va qarori, hukumatning 25 ta qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tarixiy hujjatlar o‘lka aholisining turmush tarzini yaxshilash, yashashi uchun qulay shart-sharoit yaratish, iqtisodiyotni mustahkamlash, daromadni oshirish, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, tibbiyot, sport, madaniyat sohalarni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

3

Ilgari sanoat mahsulotlari deyarli ishlab chiqarilmagan o‘lkada metallurgiya kombinati, neft-kimyoviy zavodlari komplekslari paydo bo‘ldi, qurilish materiallari, energiya resurslari va boshqa korxonalar birin-ketin ishga tushirildi. Sanoat kirib kelishi tufayli avvallari ko‘rsatkichi eng past bo‘lgan 6 ta tumanda ishlab chiqarish hajmi 2-3 barobar ko‘paydi. Kegeyli shunday tumanlarning karvonboshi edi. Ilgari umuman sanoat bo‘lmagan bu tumanda astoydil sa’y-harakatlar va hududlararo hamkorlik natijasida uchta yirik loyiha o‘zlashtirildi. “Aquba tekstil” shularning biri edi. Yiliga uch million donadan ziyod trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish quvvatiga ega korxona ishchilari endi 6 million dollarlik tovar eksport qilish maqsadida yeng shimarib ishga kirishib ketdi. Korxona jilozlarining hammasi Germaniya, Yaponiya, Turkiya kabi davlatlardan olib kelib o‘rnatilgan.

Yana bir ibratli jihat shuki, korxonaning o‘zida yoshlarni kasb-hunarga qayta tayyorlovchi o‘quv markazi ochildi. Unda ovullardagi kasbga qiziquvchi ishsiz yigit-qizlar malaka oshirdi, kasb-hunar egalladi.

Albatta, yutuqlar quvonarli edi. Ammo Prezidentimiz ulardan qanoatlanmadi, qoraqalpoq xalqining dasturxonini yanayam to‘kin bo‘lishiga asos bo‘ladigan yangi tashabbuslar izladi. Shu tariqa Qoraqalpog‘istondaqiy 450 dan ziyod mahallaning har biriga to‘g‘ridan to‘g‘ri 500 million so‘mdan qo‘shimcha mablag‘ ajratildi.

Bir mahallaga — 500 million so‘m! Birgina shu raqamni tahlil qilgan kishi bu pul to‘g‘ri va manzilli sarflansa, qanchadan qancha nochor oila og‘ir ahvoldan chiqish, qancha ishsiz ishli, qancha ro‘zg‘or esa kichik-kichik tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniga ega bo‘lishini anglab yetadi. 450 dan ziyod mahallaning har birida, boringki, o‘ntadan odam ishli bo‘lganda ham necha ming kishining qozoni qaynayadi.

Prezident yana bir tashabbus — kadastrsiz uylarni hujjatlashtirish masalasini tilga olganida ko‘pchilik joyidan turib ketdi. Qarangi, Qoraqalpog‘istonda 38 mingta uy-joy va ko‘chmas mulk kadastr qilinmagan ekan. Davlatimiz rahbari soha mutasaddilarga bu masalani tezkor bajarish vazifasini topshirdi.

Umuman, uy-joy muammosi Qoraqalpog‘iston uchun ham o‘ta muhim. O‘sha yilning o‘zida 4000 ta uy-joy qurilish va unga qo‘shimcha zamonaviy loyiha asosida yana 4000 ta yakka tartibdagi uy-joy qurishga 4 sotixdan yer ajratilishi aholiga o‘zgacha quvunch va kayfiyat bag‘ishladi.



Ishlar ko‘lami naqadar keng bo‘lishiga qaramay, Prezidentimizning ko‘ngli to‘lmasdi. 2018-yil avvalida davlatimiz rahbari yana qoraqalpoq zaminini tomon yo‘lga otladi. Berdaq boboning kindik qoni tolgan makon — Mo‘ynoqqa bordi. O‘sha paytlarda Mo‘ynoqdan xuddi Orol kabi faqat non qolgandi: fayz ketgan, korxonalar to‘xtagan, infrastruktura izdan chiqqan, ishsizlik va ertangi kunga umidsizlik hammaning sillasini quritgan...

Prezidentimiz mo‘ynoqlik yoshullarini, mahalla raislari, yoshlar bilan uchrashib, maslahatlashdi. Orol dengizining qurigan joyiga borib, vaziyatni yana bir karra ko‘rdi, tahlil qildi.

Bir paytlar minglab odam farovon hayot kechirgan, tonnalab baliq ovlangan, dengiz va unga tutash yaylovlarda qo‘y-qo‘zilarni o‘tlab yurgan, qushlar sayrog‘i, yosh-yalangning kuy-qo‘shig‘i yangrab turgan manziling bunday abgor ahvolini ko‘rish, kelajagini tasavvur qilish nihoyatda og‘ir va alamli edi.

Davlatimiz rahbari holatni teran baholar ekan, bu dahshatli muammoni oqilona hal qilish yo‘llari haqida chuqur o‘yladi. Albatta, shu paytgacha ham mazkur fojiani tuzatishga oid xalqaro rejalarni, ilmiy strategiyalar, turli-tuman jamg‘armalar bor edi. Orolni qutqarish tashkilotlarining faoliyati to‘xtagan emas, faqat natijadan darak yo‘q edi, xolos. Prezidentimiz yangi strategiya taklif qildi:



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

4

2022-yil 23-fevral. Shu kuni Toshkentdan ko‘tarilgan birinchi raqamli bort, ya’ni Prezidentimiz uchgan samolyot Nukusdan naq 200 kilometr olisidagi Mo‘ynoq aeroportiga kelib qo‘ndi. Aeroport tugul yolg‘izoyoq yo‘llari ham qumga ko‘milib, yo‘q bo‘lib ketgan joylar chinakam bayram shukuhiga to‘ldi. “Men birinchi kelganimda “Madaniyat Mo‘ynoqdan boshlanadi”, degandim. Shunday bo‘lyapti. Mana shu aeroport ham bunga bir misol. Endi Toshkent — Mo‘ynoq — Nukus aviaqatnovi yo‘lga qo‘yiladi”, deya mo‘ynoqliklar qalbiga qaynoq ruh bag‘ishladi davlatimiz rahbari. Nafaqat madaniyat, balki yangi Qoraqalpog‘iston ham aynan Mo‘ynoqdan boshlanamogda, deya Prezidentimizning so‘zlarini quvvatladi qoraqalpoqlar.

Atoqli oqin Ibroym Yusupov jondoshlari shodligiga sherik bo‘ldi: “Dunyoda 30-40 millionlab nufusi bor millatlar, elatlar mavjud. Ularning na davlati bor, na erki bor, na boshi uzra hilpirab turgan bayrog‘i bor. Qoraqalpoq shu ma’noda baxti chopgan xalq. Atigi 2 millionga yaqin aholisi bor, lekin erki bor, o‘z tug‘i, madhiyasi bor”, deya ko‘ksini g‘oz tutib o‘nlanlar aytdi.

Bugun Qoraqalpoq diyorida 2 million 300 mingga yaqin odam umrguzaronlik qilmoqda. Eng muhimi, aholining asosiy qismi doimiy ish bilan band. Ishsizlik darajasi 5,8 foiz atrofida.

Mamlakat kundan kunga o‘sib, rivojlanib boryapti. Birgina o‘tgan yilning o‘zida investitsiya dasturi doirasidagi 252 ta obyektga 886 milliard so‘mlik qurilish-ta’mirish ishlari bajarildi. 118 ta yangi obyekt foydalanishga topshirildi. Bularning 37 tasi maktab, 23 tasi bog‘cha, 6 tasi sog‘liqni saqlash, 5 tasi sport, 2 tasi madaniyat, 17 tasi ichimlik suv, 23 tasi irrigatsiya va melioratsiya, 23 tasi avtomobil yo‘llari, 15 tasi boshqa soha obyektlaridir.

5

Ko‘zlangan marralar, rejalarni esa yanada ulkan. Kelgusi besh yilda 200 ming gektar yaylovni qayta tiklash va bosildorlikni oshirish choralarini ko‘riladi, chorvachilikni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, 5 foizlik kredit ajratish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Har bir tumanda 200 ming boshli parrandachilik va 100 gektardan baliqchilik ko‘jaliklari tashkil etiladi. Shu tariqa qo‘sh, sut, tuxum va baliq yetishtirish hajmi 2 barobar ko‘payadi.

Shuningdek, kamida 760 ming gektar yer qayta foydalanishga kiritilib, Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Ellikqal’ va Nukus tumanlarida qo‘shimcha intensiv bog‘ va tokzorlar barpo etiladi. Aholi tomoqzorlarida suv ta’minotini yaxshilash orqali 12 ming fuqaroning bandligi masalasi ijobiy yechim topadi.

Ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor berilib, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini 71 foizdan 87 foizga yetkaziladi. Yangidan 40 ta davlat va xususiy, 525 ta oilaviy bog‘cha ochildi, 73 ta davlat bog‘chasi rekonstruksiya qilinadi va yana 40 ming bolaning bog‘chaga borish imkoniyati yaratiladi.

Shu o‘rinda O‘zbekistonda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash tizimi aynan Qoraqalpog‘iston maktablaridan boshlanganini ta’kidlash lozim. Bu yerda 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich

4

Endi mana bu raqamlarga e’tibor qarating: 2017-2024-yillarda “Bir qadam” tamoyili asosida hududda 74 ta oilaviy shifokorlik punkti, 81 ta oilaviy poliklinika, 92 ta MTP tashkil etildi. Ixtisoslashtirilgan markazlarning hududiy filiallarida 150 turdagi yangi texnologiya ishga tushirildi. Yiliga 4500 bemor uzoq yo‘l yurib Toshkent yoki xorijda emas, Qoraqalpog‘istonning o‘zida yuqori texnologik yordam olishi mumkin.

Bundan tashqari, 2022-2026-yillarda o‘lkani rivojlantirish uchun 43 trillion so‘m ajratiladi. Jumladan, byudjetdan 10 trillion so‘m, xalqaro moliya tashkilotlaridan 19 trillion so‘m, bank krediti hisobidan 14 trillion so‘m. Natijada yalpi hududiy mahsulot hajmi va sanoat mahsulotlari 1,5 barobar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish 1,2 barobar, xizmat ko‘rsatish hajmi 2,9 barobar, qurilish ishlari hajmi 1,4 barobar oshadi.

Necha ming yillik tarixga ega Qoraqalpoq hududi sayyohlikni rivojlantirish uchun naqadar keng imkoniyatga ega ekanini aytishga ehtiyoj bo‘lmasa kerak. Hududda 94 ta madaniy meros, 35 ta ziyoratgoh, 12 ta muzey, 24 ta teatr mavjud.

2024-yilda bu zaminga xorijlik 200 ming 700 va mahalliy 2 million 240 ming sayyoh keldi. Sayyohlik xizmatlari eksporti qiymati 30,83 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Jori yilda sayyohlar sonini 3 millionga yetkazish, sayyohlik xizmatlari eksporti qiymatini 50 million AQSH dollariga olib chiqish rejalashtirilgan.

6

Haqli savol tug‘iladi: Qoraqalpog‘iston atigi 7-8 yilda qanday qilib 70-80 yillik yutuqlarga erishdi? Javob bitta: adolati va uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan oqilona siyosat tufayli! O‘lkadagi barcha islohot, hech shubhasiz, davlatimiz rahbarining xalqiga, ona vatanga cheksiz mehru muhabbati tufayli amalga oshmoqda. Zero, Shavkat Mirziyoyev iqtidorga kelgach, qoraqalpoq diyoriga 8 yilda 20 marta tashrif buyrdi.

Tashriflarning har birida o‘nlab, yuzlab yangi buloq ko‘z ochildi. Har bir tashrifdan so‘ng salmoqli “yo‘l xaritalari” tasdiqlandi, vazifalar belgilandi, ijrolat ta’minlandi.

Keling, shu o‘rinda yaqin o‘rtada amalga oshiriladigan loyihalarimiz ba’zilariga yana bir bor nazar tashlaylik.

Yaqin besh yilda aholining ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 68 foizdan 89,7 foizga o‘rtaladi. Buning uchun 3,2 ming kilometrlik ichimlik suv tarmoqlari, 177 ta suv inshooti quriladi va ta’minlanadi.

250 ta mahalladagi 300 mingta xonadon ahli toza ichimlik suvdan bahramand bo‘ladi. O‘lis hududlardagi ovullar, bog‘cha, maktab va shifokorlarga shor suvni toza ichimlik suvga aylantirib beradigan mingta uskunaga o‘rnatiladi. Osiyo taraqqiyot banki mablag‘i hisobidan shu yil oxirigacha 1279 kilometrlik ichimlik suv tarmoqlari tortiladi hamda 27 ta suv inshooti quriladi.

Nukus shahri, Taxiotosh va Qo‘ng‘irot tumanlarida issiqlik ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish uchun 350 milliard so‘mlik loyihalar amalga oshirilib, mingdan ortiq ko‘p qavatli uy markazlashgan va individual issiqlik ta’minotiga ulanadi.

sinf o‘quvchilariga bepul tushlik berilyapti. Buning uchun har yili davlat byudjetidan 100 milliard so‘m ajratiladi.

Endi mana bu raqamlarga e’tibor qarating: 2017-2024-yillarda “Bir qadam” tamoyili asosida hududda 74 ta oilaviy shifokorlik punkti, 81 ta oilaviy poliklinika, 92 ta MTP tashkil etildi. Ixtisoslashtirilgan markazlarning hududiy filiallarida 150 turdagi yangi texnologiya ishga tushirildi. Yiliga 4500 bemor uzoq yo‘l yurib Toshkent yoki xorijda emas, Qoraqalpog‘istonning o‘zida yuqori texnologik yordam olishi mumkin.

Bundan tashqari, 2022-2026-yillarda o‘lkani rivojlantirish uchun 43 trillion so‘m ajratiladi. Jumladan, byudjetdan 10 trillion so‘m, xalqaro moliya tashkilotlaridan 19 trillion so‘m, bank krediti hisobidan 14 trillion so‘m. Natijada yalpi hududiy mahsulot hajmi va sanoat mahsulotlari 1,5 barobar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish 1,2 barobar, xizmat ko‘rsatish hajmi 2,9 barobar, qurilish ishlari hajmi 1,4 barobar oshadi.

Necha ming yillik tarixga ega Qoraqalpoq hududi sayyohlikni rivojlantirish uchun naqadar keng imkoniyatga ega ekanini aytishga ehtiyoj bo‘lmasa kerak. Hududda 94 ta madaniy meros, 35 ta ziyoratgoh, 12 ta muzey, 24 ta teatr mavjud.

2024-yilda bu zaminga xorijlik 200 ming 700 va mahalliy 2 million 240 ming sayyoh keldi. Sayyohlik xizmatlari eksporti qiymati 30,83 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Jori yilda sayyohlar sonini 3 millionga yetkazish, sayyohlik xizmatlari eksporti qiymatini 50 million AQSH dollariga olib chiqish rejalashtirilgan.

6

Haqli savol tug‘iladi: Qoraqalpog‘iston atigi 7-8 yilda qanday qilib 70-80 yillik yutuqlarga erishdi? Javob bitta: adolati va uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan oqilona siyosat tufayli! O‘lkadagi barcha islohot, hech shubhasiz, davlatimiz rahbarining xalqiga, ona vatanga cheksiz mehru muhabbati tufayli amalga oshmoqda. Zero, Shavkat Mirziyoyev iqtidorga kelgach, qoraqalpoq diyoriga 8 yilda 20 marta tashrif buyrdi.

Tashriflarning har birida o‘nlab, yuzlab yangi buloq ko‘z ochildi. Har bir tashrifdan so‘ng salmoqli “yo‘l xaritalari” tasdiqlandi, vazifalar belgilandi, ijrolat ta’minlandi.

Keling, shu o‘rinda yaqin o‘rtada amalga oshiriladigan loyihalarimiz ba’zilariga yana bir bor nazar tashlaylik.

Yaqin besh yilda aholining ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 68 foizdan 89,7 foizga o‘rtaladi. Buning uchun 3,2 ming kilometrlik ichimlik suv tarmoqlari, 177 ta suv inshooti quriladi va ta’minlanadi.

250 ta mahalladagi 300 mingta xonadon ahli toza ichimlik suvdan bahramand bo‘ladi. O‘lis hududlardagi ovullar, bog‘cha, maktab va shifokorlarga shor suvni toza ichimlik suvga aylantirib beradigan mingta uskunaga o‘rnatiladi. Osiyo taraqqiyot banki mablag‘i hisobidan shu yil oxirigacha 1279 kilometrlik ichimlik suv tarmoqlari tortiladi hamda 27 ta suv inshooti quriladi.

Nukus shahri, Taxiotosh va Qo‘ng‘irot tumanlarida issiqlik ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish uchun 350 milliard so‘mlik loyihalar amalga oshirilib, mingdan ortiq ko‘p qavatli uy markazlashgan va individual issiqlik ta’minotiga ulanadi.

Yana 4974 kilometr elektr tarmog‘i yangidan tortiladi va rekonstruksiya qilinadi, 1,4 mingtaga yaqin transformator va nimstansiya yangilanadi. 557 kilometrlik gaz tarmoqlari sozlanadi.

Aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash uchun 20,3 ming kvartirali 709 ta ko‘p qavatli (oldingi yillarga nisbatan qariyb 2 barobar ko‘p), ipoteka krediti hisobidan 2,5 mingta yakka tartibdagi uy quriladi. O‘tgan yilning o‘zida 2734 xonadonli 71 ta uy foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beynau” avtomobil yo‘lining 232 kilometrlik qismi sement-beton qoplamasi bilan rekonstruksiya qilindi.

Orolning qurigan hududida yana 1 million gektar o‘rmon va butazor barpo etiladi. Nukus shahri atrofidagi “yashil belbog‘” maydoni 200

gektarga kengaytiriladi. Shahar va tumanlar markazida jami 362 gektar, Nukus shahri va tuman markazlarida 70 gektar jamoat parklari, yashil maydonlar tashkil etiladi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 100 mingta yangi ish o‘rni ochildi, 2022-2026-yillarda 60 trillion so‘mlik (oldingi yillarga nisbatan qariyb 5 barobar ko‘p) jami 2352 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. 45 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilib, qiymati 3 trillion so‘mdan ziyod loyihalar ro‘yobga chiqishi natijasida qariyb 25 mingta yangi ish o‘rni paydo bo‘ladi. Kambag‘allik va ishsizlikni qisqartirish, aholi daromadini oshirish uchun kelgusi besh yilda 238 mingdan ziyod doimiy ish o‘rni ochildi.

Bu jozibador raqamlarni qog‘ozga muhrlayotib beixtiyor dono oqin Ibroym Yusupovning mana bu satrlari esimga tushdi:

*Yaxshi so‘z jon ozig‘idir, naql bor,
Xushomadga har kim havas o‘zinch.
Shundayam bir o‘tinchim bor, odamlar:
Qoraqalpog‘ini ko‘p maqtamang ko‘zimcha.*

Haq gap. Qoraqalpoq xalqi ortiqcha maqtovni xushlamaydi. Ammo bugun o‘lkada bajarilayotgan beqiyos ishlardan g‘ururlanmaslik, ularni olqishlamaslik ham mumkin emas-de axir!

Garchi Orol dengizining suvi kamaygan bo‘lsa-da, tabiat bu bepoyon zamin bag‘ridagi boshqa boyliklarni xalqimizga mo‘l-ko‘l qilib hadya etmoqda. Hududda topilayotgan va ishga tushirilayotgan tabiiy boyliklar, konlar buning tasdiqidir.

7

Qoraqalpog‘iston xaritasiga qarasangiz, ikki ulkan saho — Qoraqum va Qizilqum o‘rtasida joylashgan o‘lkaning yon-atrofida Borsakelmas, Qumbaskan, Qo‘yqirilgan, Qanliko‘l degan nomlar bilan atalgan joylarga ko‘zingiz tushadi. Bu nomlar o‘tmishdagi og‘ir fojialarni eslatib turadi, deydi Berdaq bobo she‘rlaridan birida.

Mahzunlikka qorishgan o‘tmish endi tarixning sarg‘aygan sahifalarida qoldi. Oldinda esa nurli, nurafton yo‘llar...

Ana shu yo‘llarning bepoyon quchoqlarida mamlakatning yorqin kelajagi nurlanib yotibdi. Keyingi besh yilda 13 trillion 300 milliard so‘mlik investitsiya o‘zlashtirilgani, shuning 2 milliard 400 million dollari xorijiy investitsiya ekani bu yurtning ertasi naqadar porloqligidan darak beradi. Bu yo‘llardan tevarakka boqsangiz, afsonaviy manzaralarga guvoh bo‘lasiz: bir yonda Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Qo‘ng‘irot soda zavodi, bir yonda sanoatimiz lokomotivi aylanagan, qiymati 4 milliard dollardan ziyod Ustyurt gaz-kimyoy majmuasi, bir yonda Gines kitobidan joy olgan, jahonda muqobil yo‘q qoraqalpoq o‘tovi, bir yonda...

Beixtiyor o‘yga tolasiz: olimlar 100 jilddan iborat “Qoraqalpoq folklori”ni nashr qildi. 7-8 yilda erishilgan yutuqlar kitob qilinsa, yuzlab jildlarga sig‘armikan?

So‘nggi yillarda ilmiy va oliy ta’lim muassasalaridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, “Sahrodagi Luvr” deb dog taratgan I.Savskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san’at muzeyiga qilinayotgan ishlar... Bular qanday sig‘ar ekan kitoblar quchoq‘iga?

Yoki o‘tkitiblar Xorazm bilan tutash hududi — Beruniy tumanida Saudiya Arabistonining ASWA Power kompaniyasi bilan hamkorlikda qurilayotgan shamol elektr stansiyasi. Qaysi dunyoga sig‘adi uning ta’rif?

Qoraqalpoq insonlari mehnatkash, yeri boy. Endi shamollariyam iqtisodiyotga manfaat keltiradi. Agar biz katta-katta korxonalar quramiz, desak, hamkorlarimiz, avvalambor, “Energetikang bormi, yo‘ling bormi, infratuzilimgang bormi?” deb so‘raydi. Bu yerda quvvati 100 megavatt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi barpo etilishi hudud iqtisodiyotiga qo‘shimcha kuch, zamin bo‘ladi, — dedi davlatimiz rahbari. — Kelgusi besh yilda bu hududda quvvati qariyb 1800 megavatt bo‘lgan 3 ta shamol stansiyasi ishga tushiriladi.

Shunday. Qoraqalpog‘iston barcha jabhada, badiiy ifoda qilganda, arslon shiddati bilan olg‘a borayotir. Davlatimiz rahbari zo‘r ifitoh bilan ta’kidlaganidek: “Qoraqalpog‘iston taqdiri — bu O‘zbekistonning taqdiri, qoraqalpoq xalqining baxti va farovonligi — bu butun O‘zbekiston xalqining baxti va farovonligidir. Bizning oliy va ezigu maqsadimiz — birgalikdagi fidokorona mehnatimiz bilan yangi O‘zbekiston tarkibida yangi Qoraqalpog‘istonnii bunyod etishdir”. Prezidentimizning bu gaplari hayotiy haqiqat ekanini vaqt degan odil hakam ko‘zgu misoli ko‘rsatib turibdi.

Bugun agar Berdaq shoir hayot bo‘lganida, bir paytlardagidek:

*Shoir edim, ko‘zim ko‘rganim yozdim,
Ko‘nglimning bilganin, sezganim yozdim,
Zamon jafosidan sarg‘aydim, ozdim,
Kelurmi, deb yaxshi kunlar xalq uchun, —*

deya qon-qon yig‘lamagan, aksinchta, yuritdagi evrilishlar qoshida hayratga to‘lib, shoir inisi Ibroym Yusupov singari:

Mehnat desang yeng shimargan polvonday,
Aravada tog‘i keltir de, keltirar.
*Do‘stlik desa, yulduz topib olganday,
Oq ko‘kragin ezgulikka to‘ldirar!* —

deb hayqirgan bo‘lar edi.

Ahamiyati yuqori tuzilma

Eng yosh xalqaro tuzilmalardan biri bo’lmish Jahon savdo tashkiloti a’zolar o’rtasidagi savdo munosabatlari tartibga soluvchi yagona global institutdir. 1995-yilda, asosan, tovarlar savdosini tartibga solish maqsadida ish boshlagan tuzilma hozirgi paytda xizmatlar, intellektual mulk (ya’ni g’oyalari va ijodiy faoliyat mahsulotlari) savdosini sohaslarida ham keng qamrovli faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, tashkilot doirasida nizolarni hal etish, savdo jarayonlarini monitoring qilish kabi muhim mexanizmlar ham amalga oshiriladi.

Bugungi kunda 166 dan ortiq davlat ushbu tashkilotga a’zo. Ular o’rtasida keng qamrovli savdo aloqalari yo’lga qo’yilgan va doimiy ravishda yangi imkoniyatlar yuvjudga keloqda. Jahon savdosining taxminan 99 foizi aynan JST a’zolari hissasiga to’g’ri keladi.

Mutaxassislar fikricha, JSTga a’zo bo’lish iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni rag’batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo’ladi. Global va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya barqaror rivojlanish va iqtisodiy o’sishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi

Markaziy Osiyo mintaqasida Qirg’iziston, Tojikiston va Qozog’iston Jahon savdo tashkiloti a’zosi. Qirg’iziston tashkilotga birinchi bo’lib qo’shilgan. Mamlakatning yetakchi ekspertlari ta’kidlashicha, JSTga a’zolik ishlab chiqarishni oshirish, tovar ayiriboshlash hajmini kengaytirish hamda tovar va xizmatlar tranzitini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratgan. Mamlakat ham importchilar, ham investorlar uchun yanada jozibador bozorga aylangan. Natijada Qirg’izistonning JST mamlakatlariga eksporti 50,5 foizdan 89,2 foizga, importi esa 41,3 foizdan 95,6 foizga oshgan.

To’rtta asosiy eksport tarmog’i — to’qimachilik, qishloq xo’jaligi, qurilish materiallari va qayta ishlash sanoati shakllandi. Xalqaro investitsiya muhiti ancha yaxшилandi. Qo’shni davlatlar bilan savdo munosabatlari kengaydi.

Ammo ayrim muammolar ham yuvjud keldi. Jumladan, ichki bozorni xorij mahsulotlari egalladi, ko’p hollarda mahalliy kichik biznesda bankrotlik holati kuzatildi. Ichki ishlab chiqarish raqobatiga to’liq tayyor emas edi va bu qishloq xo’jaligi hamda oziq-ovqat sanoatida, ayniqsa, sezildi. Shu bilan birga, qonunchilik bazasi va texnik standartlar to’liq isloh qilinmadi. Bu esa JST qoidalaridan to’liq foyda olishga to’sinlik qildi.

Tojikiston 2013-yilda JSTning to’laonli a’zosi bo’ldi. Davlatning tashkilotga qo’shilish

Kambag’allikdan farovonlik sari

Qo’shtepa tumanidagi “Bahor” mahalla fuqarolar yig’inida umrguzaronlik qilayotgan Kimyoxonning boquvchisi yo’q. Turmush o’rtog’idan ayrilganiga 13 yil bo’ldi. Yolg’iz boshi bilan farzandlarini tarbiyalaydi, qaramog’ida nogiron dilbandi ham bor.

Iqtisodiy jihatdan qiyinalib qolgach, “mahalla yetitiligi” tavsiyasi bilan “Ayollar daftari”ga kiritildi. Natijada davlatimiz tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga qanday imtiyoz, ko’mak berilayotgan bo’lsa, u ham bu imkoniyatlardan bahramand bo’ldi.

U peshona teri, halol mehnati bilan turmush qiyinchiliklaridan aslo cho’chimadi, mehnatni orilimadi. O’ziga berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalandi. Bir necha yildirki uyda yostiqlar uchun milliy quroqlar tayyorlash bilan shug’ullangan. Ammo faoliyatini kengaytirish uchun yangi jihozlar sotib olishda moddiy qiyinchilikka duch kelayotgandi. Mahalla faollarining tavsiyasi bilan unga 30 million so’m imtiyozli kredit berildi. Buning hisobidan hunarmand 6 ta tikuv mashinasi, kerakli xom-ashyolar xarid qilib, xonadonida yostiqlar uchun quroqlar, liboslar tikishni yo’lga qo’ydi. Oilaviy korxonada tayyorlanayotgan mahsulotlar ichki bozordan tashqari qo’shni mamlakatlarga ham sotilyapti. Natijada nafaqat oilasi, balki mahalladoshlarini ham ish bilan ta’minlashga erishdi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini yo’lga qo’yib, “Ayollar daftari”dan chiqdi.

— Yurtimizda qanday ishga qo’l urmoqchi bo’lsangiz, hammasi uchun imkoniyat, shart

jarayoni 11 yil davom etdi. Ma’lumotlarga ko’ra, shundan keyin mamlakat eksporti hajmi 2 barobar, eksport qilinadigan tovarlar ro’yxati 1,8 barobar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,1 barobar, qishloq xo’jaligi mahsulotlari esa 1,3 barobar oshgan.

Bundan tashqari, a’zo bo’lgan davrda mamlakat eksport, import va tranzit tartiblarini soddalashtirish maqsadida “Yagona darcha” joriy etdi. “Tojikiston savdo portali” yaratildi va savdo sohasida qator muhim islohotlar amalga oshirildi.

Tojikiston global savdo tashabbuslarida ishtirok etib, o’rta muddatli iqtisodiy o’sish 7 foizga, biznesning o’rta muddatli o’sishi esa 10 foizga erishgani qayd etilgan.

Shu bilan birga, eksport salohiyati cheklangan asosiy eksport mahsuloti bo’lgan alyuminiy narxlariga bog’liqlik yuqoriligi kuzatildi. Infratuzilma zailigi savdo salohiyatini chekladi. Savdo erkinlashuvi bilan bir qatorda ayrim ishlab chiqaruvchilar chet el kompaniyalarining to’g’ridan to’g’ri raqobatiga dosh bera olamdi.

Qozog’istonning JSTga a’zo bo’lganiga o’n yil bo’ldi. Hozirgi kunga kelib mamlakat jahon savdo-iqtisodiy tizimiga chuqur integratsiyalashgan. Dunyoning 185 davlati bilan savdo qiladi, tovar ayiriboshlash hajmining 90 foizdan ortig’i JSTga a’zo mamlakatlariga to’g’ri keladi.

Bu davlat baliqchilikni subsidiyalash, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo’jaligi sohasida sezilarli natijalarga erishdi. Investitsion muhit yaxшилandi, xorijiy sarmoya kirishi ortib bordi. Bojxona tizimi va texnik reglamentida aniq qoidalar joriy etildi. Mamlakat o’z eksportchilarini xalqaro nizolarda himoya qilish imkoniyatiga ega bo’ldi.

Lekin ba’zi strategik tarmoqlarda (energetika, mashinasozlik) raqobat ortishi ichki ishlab chiqarishga salbiy ta’sir qildi. Qo’shma a’zolik (JST + Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi) ba’zi hollarda turli qoidalar va me’yorlar o’rtasida ziddiyatlarga olib keldi. JSTga moslashish uchun katta mablag’ sarflandi. Bu kichik biznes (korxonalar) uchun og’irlik qildi.

Turkmaniston Jahon savdo tashkilotiga kirishni rejalashtirmoqda.

Qo’shni mamlakatlar tajribasi dalolat beradiki, JST a’zoligi iqtisodiy o’sish va xalqaro bozorga chiqish imkonini beradi. Biroq bu faqat puxta xizmatlar, strategik rejalashtirish, institutsional mustahkamlik bilan samarali kechadi. O’tish davrini hisobga olmagandavlatlar import bosimiga uchraydi, mahalliy ishlab chiqarish so’nsa, JST foyda emas, muammo keltiradi.

JST — imkoniyatlarni eshigi. Ammo bu imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun tashkilotga a’zo bo’lishga tayyorgarlik darajasi va amalga oshiriladigan islohotlar o’z vaqtida va o’ta sifatli bo’lishi juda muhim.

“AYOLLAR DAFTARI” IMTIYOZ EMAS, IMKONIYAT



sharoit bor. Faqat harakat qilish, izlanish, imtiyoz va imkoniyatlardan to’g’ri foydalanish kerak, — deydi Kimyoxon Zokirova. — Mana shu e’tibor tufayli mehnatim samarasini ko’rib kelyapman. Oilaviy ishlab, kreditimizni to’layapmiz. Bu orada shu yaqin atrofda yashovchi 10 ayol-qizni ish bilan ta’minladim.

Kasanachilikni yo’lga qo’ydi. Bu yana o’nlab oilaga qo’shimcha daromad olib kirish imkonini berdi.

Xotin-qizlar bandligini ta’minlash, farovonligini oshirish yo’lidagi bu imkoniyatlar Kimyoxonni yangi maqsad va rejalar ustida ishlashga undadi. Asosiy maqsadi — qishloq



Mo’ljal — kelgusi yil

O’zbekiston barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish doirasida Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lish jarayonini tizimli ravishda jadallashtirib, ushbu jarayonni 2026-yilda yakunlashni rejalashtirmoqda. Barcha sohalarda keng ko’lamli islohotlar kechayotgan O’zbekiston uchun JSTga integratsiya bo’lish barqaror o’sish, investitsion jozibadorlikni oshirish va institutsional shaffollikni mustahkamlashda muhim omildir. Yurtimizda bu borada Markaziy Osiyo va boshqa davlatlarning ijobiy va salbiy tajribalari hisobga olingan holda, bosqichma-bosqich tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, tashkilotga a’zo mamlakatlar bilan bozorga kirish bo’yicha O’zbekiston qator masalalarga bag’ishlangan ikki va ko’p tomonlama muzokaralar jarayonida tashqi savdo rejimini tarif va notarif choralar orqali o’zgartirish haqida qarorlar qabul qildi.

A’zolik jarayonini jadallashtirish maqsadida milliy qonunchilik tashkilot talablariga uyg’unlashtirilmogda. Shu doirada 13 ta qonun, Prezidentning 10 ta farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining 19 ta hamda idoralararo 10 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bojxona, eksport-import va intellektual mulk sohaslaridagi tartibotlar bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga moslashtirilmogda.

O’zbekiston hozirgacha 33 ta mamlakat bilan ikki tomonlama muzokaralarni boshlab, ularning 24 tasi bilan muzokaralarni yakunladi. Bu esa mamlakatimizning global savdo tizimiga integratsiya bo’yicha qat’iy irodasini namoyon etadi va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga va global savdo muhitida O’zbekistonning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Barqaror taraqqiyot yo’lidagi hamkorlik

Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lish O’zbekiston uchun, avvalo, dunyoning katta va raqobatbardosh bozoriga keng yo’l ochadi. Savdo shart-sharoitlari yanada yaxshilanadi, mamlakatimiz orqali tranzit qilinadigan yuklar hajmi oshib, davlat byudjetiga qo’shimcha tushumlar shakllanadi.

Shu bilan birga, milliy huquqiy va institutsional islohotlar xalqaro standartlarga moslashtirilishi ortidan investitsiyaviy jozibadorlik yanada ortadi. Natijada iqtisodiyotning barqaror o’sishiga, yangi ish o’rinlari yaratilishiga va aholi uchun munosib mehnat sharoitlari bo’lishiga zamin yaratiladi. Bu jarayonlar O’zbekistonning barqaror rivojlanishga doir milliy maqsadlariga nafaqat to’la mos keladi, balki ularning amalga oshirishini jadallashtiradi.

Xalqaro valyuta jamg’armasining 2024-yil oktabr oyida e’lon qilingan World Economic Outlook hisobotiga ko’ra, dunyoda aholi turmush darajasi, texnologik rivojlanish va innovatsiyalar sohaslarida yetakchi yirik iqtisodiyotlar — AQSH, Xitoy, Germaniya, Yaponiya, Hindiston, Fransiya, Italiya va Braziliya kabi davlatlar JSTga a’zo sanaladi.

Ta’kidlash kerakki, O’zbekiston iqtisodiy jihatdan muhim qator mamlakatlar — AQSH, Xitoy, Braziliya, Filippin, Tailand, Pokiston, Argentina va Shri-Lanka bilan hamkorlik bitimlarini imzoladi.

Ilgari O’zbekiston mahsulotlari asosan Markaziy Osiyo bozorlariga yo’naltirilgan bo’lsa, endi mamlakat uchun jahon bozoriga keng yo’l ochilmogda.

Aholining turmushi yanada yaxshilanadi

So’nggi yillarda “O’zbekiston — 2030” strategiyasi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg’un davlat siyosati tufayli aholi farovonligini oshirish borasida sezilarli natijalar qo’lga kiritildi. Jumladan, 2017-yildan buyon O’zbekistonda kambag’allik darajasi ikki barobar kamaydi. 2030-yilgacha ushbu ko’rsatkichni 7 foizgacha pasaytirishga qaratilgan sa’y-harakatlar izchil davom etirilmoqda.

Shu bilan birga, Jahon savdo tashkilotiga to’laonli a’zo bo’lish maqsadida barcha sohalarda, xususan, savdo va investitsiya yo’nalishlarida milliy qonunchilik xalqaro standartlarga moslashtirilyapti. Bu jarayon, avvalo, savdo-iqtisodiy faoliyatning huquqiy bazasini takomillashtirib, uni yanada shaffof va qulay qiladi. Natijada O’zbekiston bozoriga yangi investorlar va mahsulotlar kirib kelishiga sharoit yaratiladi, raqobat muhiti kuchayib, bozorlar to’yinadi va narx-navo barqarorlashadi. Bu esa aholi turmush darajasi yanada oshishiga va kambag’allik qisqarishiga mustahkam asos bo’ladi.

“Yangi O’zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti”

O’zbekiston bozoriga sifatli va yirik xorijiy kompaniyalar kirib kelishi milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga jiddiy raqobat bosimini keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat, eng avvalo, mahalliy xususiy biznes va tadbirkorlik subyektlariga salbiy ta’sir ko’rsatishi ehtimoli bor. Shu bois, xalqaro savdoga qo’shilish bilan yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xatarlarni kamaytirish va milliy kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadidagi ishlar ko’lami kengaydi.

Jumladan, savdo siyosatini takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan chuqur islohotlar kechayapti. Ayni paytda “Yangi O’zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g’oyasi asosida milliy brendlarni xorij bozorlariga olib chiqishga qaratilgan kompleks choralar ko’rilmogda. Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 3,3 barobar oshirish, Yevropa mamlakatlariga GSP+ va boshqa imtiyozli tizimlar doirasida tayyor hamda texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmogda.

Bundan tashqari, dunyoning 50 ta nufuzli brendi ishtirokida maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, har bir tumanda kamida 10 ta ish o’lmi yaratadigan iktikadan sanoat zonasini barpo etish va biznes inkubatorlar tizimini rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlar avjida.

Mahalliy sanoat tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, qo’llab-quvvatlanayapti. Natijada hozirgi kunda mahallalarda o’rtacha 40-50 ta korxona faoliyat yuritmoqda va barcha tumanlarda mahsulot eksport qiluvchi tadbirkorlar shakllandi.

Eksportchi korxonalarni qo’llab-quvvatlash maqsadida tashkiliy va moliyaviy yordam tizimi takomillashtirilmogda. Xususan, yuqori qo’shilgan qiymatga ega, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag’batlantirish uchun 1 milliard AQSH dollari miqdorida mablag’ ajratildi.

JSTga a’zo bo’lish bo’yicha muzokaralar davomida raqobatbardoshlik darajasi yetarli bo’lmagan yoki davlat korxonalari ustun mavqega ega bo’lgan sohalar uchun 10 yilgacha imtiyozlar taqdim etish imkoniyati nazarda tutilmogda. Bu esa milliy iqtisodiyotning asta-sekin va muvozanatli integratsiyasiga xizmat qiladi.

Davlat ishtirokidagi ayrim korxonalarning maxsus (eksklyuziv) huquqlari bekor qilindi. Bojxona yig’imlari faqat fiskal maqsadlarda undirilmaligi ta’minlandi. Oziq-ovqat va qishloq xo’jaligi mahsulotlarini muvofiqlikka deklaratsiyalash tartibi joriy etildi. Maishiy elektr jihozlariga qo’yiladigan energiya samaradorligi talablari xalqaro standartlarga muvofiqqlashtirildi.

Umuman olganda, O’zbekiston JSTga a’zo bo’lishga keng qamrovli va puxta tayyorgarlik ko’rmogda. Ishlar milliy qonunchilik bazasini isloh qilish, eksportni qo’llab-quvvatlash va mahalliy ishlab chiqaruvchilarga o’tish davrida yordam berish, kichik va o’rta biznesni rag’batlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularni o’qitish kabi yo’nalishlarni qamrab olgan.

2023-yilda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi doirasida Jahon savdo tashkiloti bosh direktori O’zbekistonning tashkilotga a’zo bo’lish yo’lidagi islohotlarini yuqori baholab, ushbu jarayonni to’liq qo’llab-quvvatlashini bildirgandi.

2024-yilning may oyi oxirida O’zbekistonning JSTga a’zo bo’lishi yuzasidan ishi g’uruhning sakkizinchi yig’ilishida mamlakatning ushbu tashkilotga qo’shilishi uchun zarur islohotlarni amalga oshirish borasidagi samarali faoliyati yuqori baholangan.

Maqolamiz avvalida qayd etganimizdek, bugungi global iqtisodiyot sharoitida mamlakatlarining barqaror rivojlanishi xalqaro savdodagi faol ishtirok bilan chambarchas bog’liq. O’zbekistonning bu boradagi sa’y-harakatlari xalqaro bozorlar bilan chuqur integratsiyaga kirishish, iqtisodiy o’sishni rag’batlantirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Abdurahim MAMAJONOV, Barqaror rivojlanish markazi bo’lim boshlig’i

“Mahalla hududidagi bo’sh turgan binoni ijaraga olib, 11 ta tikuv mashinasi bilan uy-ro’zg’or buyumlari, ko’rpa-to’shak tayyorlashni yo’lga qo’ydi. Bundan tashqari, “Ustoz-shogird” an’analari asosida mahalladagi xotin-qizlarga kasb sirlarini o’rgatmoqda. Yorqinoy ro’zg’orini iqtisodiy jihatdan tiklab, “Ayollar daftari”dan chiqishga muvaffaq bo’lgan, davlatimizning bo’amxo’rligini o’z hayoti, ishidha his etgan shaxs sifatida boshqalarga namuna bo’lmogda.

— Bitta oilaning hayotidagi bunday o’zgarish, tashabbuslar haqida yana ko’plab misol keltirish mumkin, — deydi Qo’shtepa tumani hokimi o’rinbosari — oila va xotin-qizlar bo’limi boshlig’i Maryam Yo’ldosheva. — Joriy yilning birinchi choragida “Ayollar daftari”ga kiritilgan 235 xotin-qizga asosiy va qo’shimcha yordam ko’rsatish maqsadida tijorat banklari tomonidan 850 million so’m kreditlar ajratildi. Yil yakuniga qadar bunday toifadagi 6620 xotin-qizning bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, subsidiya ajratish, moddiy yordam ko’rsatish, uy-joyini ta’mirlash, tibbiy,

huquqiy, psixologik ko’mak berish borasida tizimli ishlar qilinayapti. Xususan, 1100 xotin-qizni kasb-hunar va tadbirkorlikka o’qitish, subsidiya, bank krediti ajratish hisobiga 450 nafarini iqtisodiyotning turli tarmoqlarida band qilish va 3094 nafarini doimiy va mavsumiy ish o’rinlariga joylashtirishga ko’maklashildi. Tadbirkorlik istagidagi ehtiyojmand xotin-qizlarning 516 nafariga “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan 774 million so’mlik bir martalik moddiy yordam ajratish borasida amaliy ishlar qilyapmiz. Bundan tashqari, bu toifadagi xotin-qizlar yuxud ularning oliy ta’lim muassasasida o’qiyotgan ikki va undan ortiq farzandlaridan birovining to’lov-kontrakti summasi bir marta to’lab berilyapti, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, sport musobaqalari o’tkazilyapti. “Moziyga sayohat” dasturi doirasida mamlakatimiz bo’ylab maroqli sayohatlar tashkil etilmogda. Faqat bugina emas. Shu kunga qadar Jahon banki ishtirokida Yaponiya ijtimoiy rivojlanish fondi (JSDF) tomonidan joriy yilda 7 ta mahalla fuqarolar yig’inidagi xotin-qizlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlagan 12 ta loyiha uchun 1 milliard 265 million so’m grant mablag’i ajratilib, ehtiyojmand oiladagi 64 xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Natijada chekka va olis qishloqlarda ham qandolatchilik, tikuvchilik, paypoq to’qish, mebel, non va makaron mahsulotlari ishlab chiqarish yo’nalishlarini qamrab olgan yangi loyihalar ishga tushirildi.

Qisqasi, “Ayollar daftari” imtiyoz emas, balki yangi imkoniyat va tashabbuslarga qanot bo’lib, oilalarga fayzu baraka, farovonlik olib kirayotir.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O’zbekiston” muxbiri

OLIYGOHLAR UCHUN NIMAGA KERAK?

Mamlakatimizdagi oliygohlarning xalqaro darajadagi imijini yaxshilash, ularga xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, milliy universitetlarning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish, xorijlik talabalar hamda xalqaro hamjamiyatning yirik ilmiy doiralarini jalb etish bo‘yicha sa‘y-harakatlar yuqori bosqichga ko‘tarilmoqda.

Nilufar IMOMOVA,
Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti
katta o‘qituvchisi

Xalqaro reytinglar oliy ta‘lim muassasasining o‘qitish sifati yuqoriligini ko‘rsatish bilan birga, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ham namoyon qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, xorijiy investorlar, xalqaro hamjamiyatning mazkur oliygohlarga qiziqishi va ishonchi ortishiga sabab bo‘ladi.

Universitetlarning xalqaro reyting-larda ishtiroki bo‘yicha QS (Quacquarelli Symonds), THE (Times Higher Education) va ARWU (Academic Ranking of World Universities) kabilar eng nufuzli reyting agentliklaridir. Bu reytinglardan o‘rin egallash uchun universitetlar qator talab-larga javob berishi lozim. Mazkur talab-larning har biri turli mezonlar bilan o‘lchanadi va turlicha baholalanadi.

Xalqaro reytinglardagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri universitetning ilmiy tadqiqot faoliyati va ilmiy maqolalari orqali xalqaro hamjamiyatda tan olinishidir. Masalan, ARWU reytingida OTMlarning asosan ilmiy tadqiqotchilik salohiyati baholanadi. Bu jarayonda xalqaro e‘tirofga sazovor ilmiy maqolalar soni, nashrlardan olingan iqtiboslar va professorlarning xalqaro ilmiy mukofotlarga sazovor bo‘lishi yuqori o‘rinni ta‘minlaydi.

QS xalqaro reytingida tashkilot OTMlarni foiz asosida baholaydi. Eng yuqori foiz ilmiy tadqiqotlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotlar esa akademik e‘tirof hamda iqtiboslilik darajasi bilan o‘lchanadi. Akademik e‘tirof aksariyat hollarda nufuzli professorlar, tadqiqotchilar va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar orqali baholanadi. Global miqyosda e‘tirofga erishish uchun universitetlar nufuzli xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan hamkorlik qilishi va qo‘shma tadqiqotlar olib borishi, professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilarining ilmiy yutuqlarini xalqaro platformalarda faol targ‘ib qilishi, yuqori darajadagi professorlar va tadqiqotchilarni jalb qilishi va ularga sharoit yaratishi, shuningdek, xodimlarning ilmiy salohiyatini oshirishga ko‘maklashishi zarur.

Iqtiboslilik ko‘rsatkichi esa uni-versitet professor-o‘qituvchilari va tad-qiqotchilarining ilmiy maqolalariga qan-chalik ko‘p murojaat qilinayotganini aniqlab beradi. Reytingdagi iqtiboslilik darajasi yuqori bo‘lishi OTMning global ilm-fanga qo‘shgan hisssasi va ilmiy maqolalarining sifati haqida ma‘lumot beradi.

Universitet bitiruvchilarining mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ham xalqaro reytinglarda yuqori o‘rin egallashning muhim ko‘rsatkichlaridan. Ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarning baholanishi OTM tayyorlagan kadrlarning

mehnat bozoriga kirish salmog‘ini ko‘rsatib beradi. Bunda asosiy e‘tibor qaratiladigan jihatlar ish beruvchilar e‘tirofi hamda bandlik natijalaridir.

Bandlik ko‘rsatkichi ham reytinglarning muhim tarkibiy qismi. Bitiruvchilar mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishga joylashishi, qanchalik tez ish topishi va daromadini o‘z ichiga oladi. Universitet bitiruvchilarni ishga joylashtirish xizmatlarini rivojlantirishi, o‘quv dasturlarini amaliyotga yo‘naltirishi, potensial hamkorlar bilan aloqani yanada kuchaytirishi ayni ko‘rsatkich bo‘yicha yaxshi natijalarga erishish kafolati bo‘ladi.

Reytingianiqlanayotgandauniversitetning jahon miqyosidagi o‘mi ham katta. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijlik talabalarni jalb qilish va professorlarning xalqaro ilmiy doiralardagi ishtirokini kengaytirish universitetlar uchun nihoyatda muhim. Bu ko‘rsatkich uchta mezondan — xalqaro ilmiy xodimlar, xalqaro tadqiqotlar hamda xalqaro talabalar soni va salmog‘idan iborat.

Shu nuqtayi nazardan xalqaro ilmiy xodimlar va xorijlik talabalar nisbati umumiy xodimlar va talabalar soniga mos bo‘lishi lozim. Xalqaro tadqiqotlar tarmog‘i esa oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va olimlarning xalqaro miqyosda hamkorlik qilishi uchun tashkil qilingan tarmogdir. Uning muhimligi shundaki, universitetning ilmiy faoliyati ko‘rsatkichlarini oshirishga yordam beradi.

Xalqaro reytinglardagi zamonaviy tendensiyalarga ko‘ra, barqaror rivoj-lanish, ijtimoiy mas‘uliyat va innovatsiya-lar universitetlarning reytingi natijalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Universitetlar endi nafaqat an‘anaviy ta‘lim va ilmiy tadqiqotlarga, balki ularning ijtimoiy ahamiyati va jahon miqyosidagi ta‘siriga ham katta e‘tibor qaratmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta‘lim tizimidagi chuqur islohotlar tufayli OTMlarning xalqaro reytinglardagi o‘rmi yuqorilab bormoqda. Xususan, 2024-yilda QS World University Ranking: Asia yo‘nalishida O‘zbekiston bo‘yicha 14 OTM yetakchi 1000 talikdan joy olgan bo‘lsa, hozir ularning soni 23 taga yetdi. Mazkur holat OTMlarning xalqaro reytinglar mezonini va ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganib, tahlil qilgani hamda sifatli ta‘lim, ilmiy tadqiqot va xalqaro hamkorlik bo‘yicha yaxshi natijalarga erishayotganidan dalolat beradi.

Bugun raqamli transformatsiya va masofaviy ta‘lim imkoniyati ham xalqaro reytinglardagi asosiy yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Universitetlar raqamli texnologiyalarni joriy etish va onlayn ta‘lim dasturlarini rivojlantirish orqali raqobatbardoshligini oshirishi davr talabiga aylanib ulgirdi. Dunyoning reytingi eng yuqori universitetlariga nazar tashlasak, barchasida masofaviy va onlayn ta‘limga keng yo‘l berilgani ko‘rinadi. Bu borada mamlakatimiz ta‘lim tizimida ham keng ko‘lamli ishlar qilinayotir.

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Tanlov

YURTIMIZDA IJOD QILAYOTGAN XONANDA, KOMPOZITOR VA BASTAKORLAR DIQQATIGA!

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi barchamiz uchun eng ulug‘ va eng aziz bayram — yurtimiz mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligi munosabati bilan qo‘shiqlar tanlovini e‘lon qiladi.

Tanlovda xonandalar, shoirlar ham-da bastakorlar Vatan, istiqlol, tinchlik va farovonlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat, millatlararo do‘stlik va ham-jihatlik, o‘zaro mehr-oqibat kabi yuk-sak insoniy tuyg‘ular tarannum etilgan yangi qo‘shiqlari bilan ishtirok etish-lari mumkin.

Tanlovda qatnashish istagida bo‘lgan ijodkorlar o‘z qo‘shiqlarini “O‘zbekkonsert” davlat muassa-sasining “Mustaqillik-2025” telegram manziligiga yo‘llashlari mumkin.

G‘olib deb topilgan xonandalar pul mukofoti hamda Mustaqillik bayrami munosabati bilan o‘tkaziladigan

asosiy tadbirga o‘z asarlari bilan tavsiya etiladi.

- 1-o‘rin uchun (bitta)
50 million so‘m.
- 2-o‘rin uchun (bitta)
40 million so‘m.
- 3-o‘rin uchun (bitta)
30 million so‘m.

Qadrlı yurtdoshlar! Vatan tuyg‘usi ijodkor uchun chinakam ilhom manbai-dir. Shunday ekan, ushbu imkoniyatdan foydalanib, o‘z iqtidoringizni namoyish qilishga shoshiling!

Ijodiy ishlar joriy yilning 1-avgust-gacha qabul qilinadi. Tanlov g‘oliblari 2025-yil 15-avgust kuni e‘lon qilinadi.



ARABLARNING MOVAROUNNAHRNI EGALLASHI

Arab xalifaligiga 632-yilda Muhammad s.a.v. vafotidan keyin asos solingan.

Payg‘ambarimizdan keyin uning ishlarini davom ettirgan hukmdor Abdulloh ibn Abu Quhofa Usmon, ya‘ni Abu Bakr Siddiq (632-634-yillar) davlat boshlig‘i bo‘lgan va xalifa deb atalgan. Shundan so‘ng xalifalar Umar ibn Xattob (634-644-yillar), Usmon ibn Affon (644-656-yillar) va Ali ibn Abu Tolib (656-661-yillar), bir muddat kechgan siyosiy beqarorlikdan keyin Muoviya ibn Abu Sufyon (661-680-yillar) hokimiyatga kelgan va umaviylar sulolasiga (661-750-yillar) asos solgan. Bu xalifalar islom dini mafkurasi asosida davlatni boshqargan va uning hududini kengaytirib borgan.

Arab xalifaligi VII asming ikkinchi yarmiga kelib Arabiston yarim oroli, Kichik Osiyo, Eron va Shimoliy Afrikaning katta hududini egallagan. Arab manbalarida Turonning yuragi hisoblangan bugungi O‘zbekiston va unga tutash hududlar Movarounnahr deb atalgan.

Arablarning Movarounnahrga yurishi. Arablar 651-yilda sosoniylarga qattiq zarba berib, Marv shahrini jangsiz egallaydi. Shundan so‘ng xalifalik o‘z hududini yanada kengaytirish maqsadida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlarga qisqa talonchilik yurishlari qiladi. Bu hujumlardan avval arab qo‘mondoni Ahnaf ibn Qays (602-691-yillar) qo‘shinlari turkiylar ta‘siri kuchli bo‘lgan bugungi Afg‘oniston hududidagi To‘xoristonga hujum uyushtirgan, lekin yengilgan. 654-yilda Sug‘d hududidagi Moymurg‘ga yurish qilgan. 667-670-yillarda esa Hakam ibn Amr G‘iforiy Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Chag‘oniyon (bugungi Surxondaryo viloyatining shimoliy) egallagan.

Arablar bosqini Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod (673-yilda noib lavozimida bo‘lgan) davrida davom etgan, ularning qo‘shini Buxoroga hujum qilgan. Bu davrda Buxoroda Qabaj xotun hukmronlik qilgan. Ular avval Poykand, Romtin kabi yerlarni egallagan. Hujum paytida turklar yordamga kelgan bo‘lsa-da, buxoroliklar mag‘lubiyatga uchragan. Buxoro malikasi katta mablag‘ to‘lash evaziga sulh tuzishga majbur bo‘lgan. Asir tushgan to‘rt ming buxorolik Ubaydulloh xizmatiga kirgan.

676-yilda Said ibn Usmon (680-yilda vafot etgan) davrida arablar Sug‘da yurish boshlagan. Said Kesh, Nasaf, Buxoro va

(705-715-yillar) esa Xurosonni boshqargan. Xuroson bu davrda xalifaning Iroqdagi noibi Abu Muhammad Hajjoj ibn Yusufga (661-714-yillar) bo‘ysungan. Qutayba o‘sha davrda Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlarni bosib olish rejasini tuza boshlagan va uni hayotga tatbiq etgan.

Dastlab u Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi viloyatlar o‘rtasidagi mayda nizolardan foydalangan. Undan Chag‘oniyon hokimi Bish Axarun va Shumon (Hisor vodiysi hududlari) hokimi bir-biriga qarshi kurashda yordam so‘rashi o‘z maqsadini amalga oshirishda ayni muddao bo‘lgan. Qutayba Axarun va Shumon hukmdoriga qarshi urushda g‘alaba qozongan, katta o‘ljani qo‘lga kiritgan. Bu urush faqat Qutaybaga boylik keltirgan, xolos, lekin arablarni siyosiy jihatdan kuchaytirmagan. U Marvga qaytib ketishga majbur bo‘lgan. Bu davrda Badg‘is (Afg‘oniston shimoli) hokimi Turk (bu ism Nizak, Tirak tarzida ham uchraydi) Qutaybaga qarshi isyon ko‘targan, so‘ng shaxsan Marvga kelgan va Qutayba bilan kelishishga muvaffaq bo‘lgan. Shartga ko‘ra, u arablar qo‘shinini askarlar bilan kerakli vaziyatlarda ta‘minlash majburiyatini olgan, arablar esa buning evaziga uning ichki siyosatiga aralashmagan.

706-yilda Qutayba Buxoro yaqinidagi Baykand (Poykand) shahriga hujum qilgan. Hujum uchun bekorga bu shahar tanlamagan. Chunki shahar, birinchidan, juda boy, ikkinchidan, muayyan darajada mustaqil bo‘lgani uchun Buxoro tomonidan harbiy yordam to‘liq ko‘rsatilmasligi mumkin edi. Shunday bo‘lsa-da, shahar aholisi arablar hujumi to‘g‘risida oldindan xabar topib, turklar va sug‘dliklardan yordam



turklarning birlashgan qo‘shini ustidan g‘alabaga erishgan. Buxoro, Samarqand, Termiz va boshqa shaharlarni qo‘lga kiritgan. Biroq arablar hokimiyati mustahkam emasdi, o‘zlarining ichida ham qarama-qarshiliklar bor edi. Masalan, mahalliy hukmdorlar va arab qo‘mondoni Muso ibn Abdulloh Hazimning birlashgan kuchlari 689-yilda xalifalik kuchlarini Termizdan quvib chiqargan.

Qutayba ibn Muslim istilosi. 704-yilda Qutayba ibn Muslim (669-715-yillar) Xuroson noibi etib tayinlanadi va Movarounnahrga yurish boshlaydi. 709-712-yillarda Samarqand, Buxoro va Xorazmni bosib olib, xalifalikka bo‘ysundiradi.

Qutayba ibn Muslim Turon va Eron hududlarini bosib olishda ko‘rsatgan ishlari bilan tarixda nom qoldirgan. Qutaybaning to‘liq ismi Abu Hafs Qutayba ibn Muslim ibn Amr ibn Husayn Bohiliy bo‘lib, u Muoviya ibn Abu Sufyon xalifalik qilgan zamonda (661-680-yillar) hijriy 49 (milodiy 669) yilda Basrada tug‘ilgan. U arablarning bohila qabilasidan edi. Uning otasi umaviylardan bo‘lgan xalifa Yazid ibn Muoviyaga (680-683-yillar) yaqin kishilardan bo‘lgan.

Qutayba Qur‘on ilmi, fiqh, jang san‘ati va boshqa sohalarni o‘rgangan. Bu esa uning tezda obro‘ qozonishiga sabab bo‘lgan va u xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685-705-yillar) davrida Eronning Ray viloyatida hokim bo‘lgan. Xalifa Abdulmalikning o‘g‘li Valid davrida

so‘ragan. Turklar va sug‘dliklar Qutaybaning orqa tomondan yo‘lini kesib qo‘ygan. Natijada Qutayba ikki oy davomida Xuroson bilan aloqa qila olmagan. Poykandliklar Qutaybaning homiysi Hajjoj taxtdan tushirilgani to‘g‘risida yolg‘on xabar tarqatgan. Qutayba buni jiddiy qabul qilgan va choparni o‘ldirishni buyurib, hal qiluvchi hujumga o‘tgan. Natijada u shaharni bo‘ysundirgan va bu yerda kichik qo‘shinni qoldirib, o‘zi hokimiyatni yo‘qotib qo‘ymaslik uchun Xurosonga ketishga chog‘langan. Poykandliklar isyon ko‘targan va Qutayba qoldirib ketgan askarlarni o‘ldirib, ularning burunlari va quloqlarini kesgan. Qutayba bundan xabar topib, ortga qaytgan. U shaharni ikkinchi marta bir oy qamal qilgan, har qanday muzokara takliflarini rad etgan. Shahar qo‘lga olinganidan keyin barcha himoyachilar o‘ldirilgan va aholi talon-taroj qilingan.

707-yil bahorida Qutayba Buxoro vohasi shaharlaridan Bumijkatni hujumsiz egallagan. Romtinni ham osonlik bilan qo‘lga kiritgan. 708-yilda Qutayba Buxoro vohasining shimoli-sharqiy chegarasi — Vardonaga yetib kelgan. Bu yer hokimi vardonxudot va arablar o‘rtasida ikki kunlik shiddatli jang bo‘lgan. Ikki tomon ko‘p yo‘qotishlarga uchragan. 709-yilda esa Qutayba qo‘shini Buxoro tomon yurgan. Buxoro aholisi Poykandnikidan ikki barobar ko‘p bo‘lgan. Bu davrda Qutaybaga Vardona tomondan vardonxudot hujum qilgan va Qutayba

2025-yil 3-iyun, 111-son

Milliy
davlatchiligimiz
tarixidan

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiyamiz
muqaddimasida
“davlatchiligimiz
rivojining uch ming
yildan ziyod tarixiy
tajribasi, shuningdek,
jahon sivilizatsiyasiga
beqiyos hissa qo‘shgan
buyuk ajdodlarimizning
ilmiy, madaniy va
ma‘naviy merosi” alohida
ta’kidlanadi.



ikki tomondan tuzoqqa tushib qolmaslik uchun dastlab vardonxudotga qarshi yurishga majbur bo‘lgan. Vardonaliklarga turklar va sug‘dlar birlashgan qo‘shini yordam bergan. Bu jangda arab qabilalari o‘rtasida nizolar kelib chiqqan, shunga qaramay, Qutayba g‘alaba qozongan.

Qutayba har bir o‘ldirilgan bosh uchun 100 dirhamdan ulashishni va‘da bergan. Buxoro

Muslim turgashlar xoqoni Sulu va birlashgan kuchlardan (716-738-yillar) mag‘lubiyatga uchragan va arang Samarqandgacha yetib olgan. Mahalliy kuchlar jasorati va xalifalik markazidagi siyosiy voqealar sababli Xurosondagi arab qabilalari o‘rtasida yuz bergan kelishmovchilik ham jang taqdiriga muayyan darajada ta‘sir qilgan. 728-yilda Sulu



yiliga 200 yoki 220 ming dirham o‘lpon to‘lash majburiyati evaziga sulh imzolashga majbur bo‘lgan. Nizak (Turk, Tirak) Tarxon Qutayba Buxoroni qo‘lga kiritganidan keyin uning oshib borayotgan ta‘siridan xavotirga tushgan va Balxga qaytib kergan. 709-710-yillarda Qutayba boshqa isyonchilarga qarshi urush boshlagan. Bir necha jangdan keyin Nizak Tarxon, uning qarindoshlari va 700 jangchisi o‘ldirilgan. 712-713-yillarda Qutayba Samarqand va Xorazmni egallagan. Bu esa uni juda mashhur qilib yuborgan, arab shoirlari uni madh etib she‘rlar yozgan. U 2 milliondan ortiq kishini qulga aylantirgan.

Qutayba islom dinini targ‘ib qilish va tarqatish jarayonida Turonning islomdan oldingi merosiga oid kitoblar, umuman, mahalliy madaniyatga nisbatan ayovsiz kurashgan. Aholi islomni yanayam yaxshiroq tushunishi uchun Qur‘onni mahalliy tillarda tafsir qilish yo‘lga qo‘yilgan. Yana islom dinini qabul qilganlarga ikki dirhamdan berishni buyurgan. 713-yildan u Shosh va Farg‘onaga qarshi urush boshlagan. Uning Isfijogacha yurish qilgani haqida qaydlar uchraydi.

Qutayba Amudaryo va Sirdaryo havzasidagi barcha viloyatlarni o‘ziga bo‘ysundirgan va bu yerda 13 yil hukmronlik qilgan. Xalifa Valid ibn Abdulmalik (705-715-yillar) o‘lganidan keyin yangi xalifa Sulaymon ibn Abdulmalikka (715-717-yillar) qarshi muxolif kuchga aylangan. Sulaymon Qutaybani yoqtirmagan, chunki taxt uchun kurashlarda Qutayba o‘z homiysi Hajjoj bilan birgalikda uni emas, balki avvalgi xalifa Validning farzandlarini qo‘llab-quvvatlagan. Natijada Qutayba o‘z qo‘li ostidagi viloyatlarni saqlab qolishni istagan va xalifaga ochiqchasiga qarshi chiqqan. Biroq qo‘shinidagi ko‘plab qabilalar qo‘mondonlari uni qo‘llamagan va Vaki‘ ibn Hasson Tamimiy tomonidan 715-yilda o‘ldirilgan. Uning boshi tanasidan judo etilgan va xalifa Sulaymonga yuborilgan.

Qutayba hayoti davomida ko‘plab vahshiyliklarni amalga oshirgan, islom dinini tarqatish niqobi ostida o‘z manfaatini yo‘lida harakat qilgan. Uning bosqinchilik yurishlari bugun to‘g‘ri bahosini topishi kerak.

Turgashlarning arablar bilan to‘qna-shuvlari. 720-yillarda bir qator siyosiy-ijtimoiy voqealar tufayli xalifalar hokimiyati zaiflagan. Natijada Amudaryo va Sirdaryo havzasiga kirib kelgan turklar yordamida hudud aholisi arablarni quvishga tushgan va islomdan yana avvalgi dinlarga qayta boshlagan. 721-yilda qo‘mondon Ko‘l Chur (manbalarda Kursul) boshliq turgashlar qo‘shini Samarqand yaqinida Xuroson noibi Said ibn Abdulaziz yetakchiligidagi xalifa kuchlariga zarba bergan. Said ibn Abdulaziz nisbatan yumshoqro‘f shaxs bo‘lgan. Xalifa uning o‘rniga tajribali Said ibn Amr Harashiyni (722-723-yillar) tayinlagan. 722-yilning 15-25-iyul kunlari Said Farg‘onaga chekinayotgan mahalliy kuchlarga yetib olgan va ular ustidan Xo‘jand yaqinida g‘alabaga erishgan.

Shu yilning yozida Said isyonchilarga bosh-pana berishga va‘da qilgan Sug‘d o‘ldirish Divashtich (708-722-yillar) yerlariga hujum qilgan. Said bu ishlarni ruxsatsiz amalga oshirgani sababli xalifa uni lavozimidan ozod etgan va o‘rniga Muslim ibn Saidni tayinlagan. 724-yilda Sirdaryo bo‘yida bo‘lgan jangda

Buxoroni egallagan. Yana arablar 731-yili Taxtaqorachadagi “Dovon jangi”da g‘alaba qozongan bo‘lsa-da, bu g‘alaba uchun juda ko‘p kuch sarflagan. Qo‘shinning deyarli yarmi jangda halok bo‘lgan.

Turgashlarni Farg‘ona, Shosh va boshqa hududlar qo‘shinlari va hukmdorlari qo‘llab-quvvatlagan. Turgashlar asli g‘arbiy turklarning ko‘p kuchi sarflagan. Qo‘shinning deyarli yarmi jangda halok bo‘lgan.

Turgashlarni Farg‘ona, Shosh va boshqa hududlar qo‘shinlari va hukmdorlari qo‘llab-quvvatlagan. Turgashlar asli g‘arbiy turklarning ko‘p kuchi sarflagan. Qo‘shinning deyarli yarmi jangda halok bo‘lgan. 737-739-yillarda juda ko‘p urush bo‘lgan va aholining tinkasini quritgan.

Talas jangi. 750-yilda Arab xalifaligida abbosiylar sulolasining hokimiyatga kelishi unga qarashli hududlarda beqarorliklar keltirib chiqargan. Bundan Xitoyda hukmronlik qilgan Tan sulolasi ta‘siridagi kuchlar foydalanib qolmoqchi bo‘lgan. Tan sulolasi (618-907-yillar) ning Gao Syanchji ismli qo‘mondoni Pomiri egallagan, Orolbo‘yi, Kaspiybo‘yi va boshqa hududlarga hujumlar uyushtirgan. U arablar tasarrufida bo‘lgan Movarounnahrni qo‘lga kiritish uchun harakat qilgan xitoy kuchlarini boshqargan. Jangda qo‘shinlari soniga oid ma‘lumotlar manbalarda har xil ko‘rsatilgan. Musulmon manbalari mazkur jangda abbosiylarning 200 ming, xitoyliklarning esa 100 mingli qo‘shini qatnashgani haqida ma‘lumot bergan. Xitoy manbalarida esa jangda 10 ming xitoylik va 20 ming qarluq yollanma qo‘shini qatnashgani aytilgan.

751-yilning iyul oyida musulmon qo‘shinlari Talas daryosi bo‘yida xitoyliklar va qarluqlarning birlashgan qo‘shiniga qarshi jang boshlagan. Bu jangda Xuroson noibi Abu Muslim (749-755-yillar) qo‘mondonlari 25 ming xitoylikni asir olgan. Ibn Asir jangda 50 ming xitoylik o‘ldirilgani va 20 ming nafari asir olingani haqida ma‘lumot bergan. Jangda xitoyliklarning mag‘lubiyatini ularning mintaqadagi mavqega jiddiy putur yetkazgan va Movarounnahrda arablar ta‘sirini kuchaytirgan.

Shu tariqa arablarning Movarounnahrni egallashi nihoyasiga yetgan. Mahalliy kuchlar mardonavor kurashgan bo‘lsa-da, ular orasida ittifoq yo‘qligi va yagona kuchli yetakchiga ega emasligi kabi ko‘plab sabablar ularni arablar oldida ojiz qoldirgan.

Shuningdek, islom dini ham o‘sha zamonning eng ilg‘or g‘oyalarini ilgari suruvchi, insonparvar va tijoratni qo‘llab-quvvatlovchi jihatlari bilan mahalliy aholining ko‘plab vakillari e‘tiborini jalb qilgan. Natijada aholi ma‘lum qismi bu dinni qabul qilib, arablar tomonga o‘tishi kuzatilgan. Keyingi davrlarda ham arablarga qarshi harakatlar bo‘lgan. Lekin ular ko‘p holatlarda islomga va Arab xalifaligiga emas, balki muayyan hukmdorlar va rasmiy doiralar, ularning yuritgan siyosatiga qarshi harakat sifatida kelib chiqqan.

Husniddin MAMADALIYEV,
tarix fanlari nomzodi

Beruniy ALIMOV,
“Yangi media ta’lim markazi”
NNT direktori,
filologiya fanlari doktori

Tarixiy ekskurs

Markaziy Osiyo gazetachiligi 150 yil oldin aynan O‘zbekistonda, jahon televideniyesi tarixi ham bundan 100 yil avval Toshkentda boshlanganini media ekspertlari yaxshi biladi. Bugungi raqamli burilish davrida milliy jurnalistikamiz yana oldinda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish borasida.

1956-yilda Dortmund konferensiyasida Jon Makkarti birinchi marta “sun’iy intellekt” (SI) atamasini muomalaga kiritdi. Umidsizlik ortishi va moliyalashtirish hajmi kamayishi tufayli 1970-1980-yillar “sun’iy idrokning qish davri” deb ataladi. 2000-yillarda katta hajmdagi ma’lumotlar va kuchli kompyuterlar yordamida texnikaviy o‘rganish sohasi rivojlanga boshladi. 2010-yillarda chuqur o‘rganish va neyron tarmoqlar yuksaldi. 2020-yillarda esa transformer arxitekturası va katta til modellari (LLM) kabi ilg‘or texnologiyalar paydo bo‘ldi. Hozirga kelib, sun’iy idrok orqali hayotning turli jabhasi, xususan, zamonaviy xizmatlarni joriy etish, onlayn savdo-sotiq amaliyotlarini yo‘lga qo‘yish, masofali ta’lim kurslarini tashkil qilish va hatto tibbiyot sohasida ham tarixda misli ko‘rilmagan natijalarga erishilmoqda.

Insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim yangiliklaridan biri deb e’tirof etilayotgan sun’iy idrok vositasida internet uchun zamonaviy mediakontent ishlab chiqish bo‘yicha jadal qadam tashlanyapti. Nafaqat oddiy xabar matnlari, balki chuqur tahliliy hamda ilmiy maqolalar ham tayyorlanmoqda. Sun’iy idrokning generativ imkoniyatlari zamonaviy jurnalistikada ham keng qo‘llana boshladi. Bu jarayon nafaqat internet jurnalistika, balki radio va televideniya, hatto bosma matbuotda ham muntazam kuzatilmoqda.

Matbuot va yangi texnologiyalar

XXI asrda axborot uzatish vositalari misli ko‘rilmagan tezlik va shaklda rivojlanmoqda. Asosiysi, bugun sun’iy idrok matbuotga ham kirib keldi va uning sahifalarida keng namoyon bo‘lmoqda. Ayni paytda u varaqlar chiqarmoqda, press-reizlar tayyorlamqda, hatto gazetalar bosmoqda. Iltiyada shunday gazetalar allaqachon chiqdi.

Gazetalarning tahliliy kontentida juda ham kerak bo‘ladigan turli grafikalar ham ishlanayapti. Ayrim tahririyatlar gazeta maketini sun’iy idrok yordamida shakllantirmoqda. Rasm va turli infografikalar tayyorlayapti. Bunga misollarni milliy OAVdan ham ko‘plab keltirish mumkin. Masalan, 2024-yilda “O‘zbekiston matbuoti” jurnalida sun’iy idrok bilan ilk intervyu chop etildi. “Yangi O‘zbekiston” va “Jadid” gazetolari esa sun’iy intellekt yordamida chizilgan rasmlar va turli illyustratsiyalardan unumli foydalanmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasiyning rasmiy yuzuz saytida ham sun’iy intellekt yordamida tezkor maqolalar, yangiliklar, lavhalar va bloglar tayyorlanmoqda. Shuningdek, ma’lumotlarni tahlil qilish, qaysi mavzular ommabop ekanini aniqlab, auditoriya qiziqishiga mos axborot taqdim qilinmoqda. Masalan, sarlavhalar uchun

bir necha variant berib, sayt o‘quvchilari e’tiborini jalb etadigan formatlar yaratilmoqda. AI SEO qoidalariga mos, kalit so‘zlar bilan boyitilgan matnlarni tuzib, sayt trafikini oshirishda muhim rol o‘ynayapti. AI surat va illyustratsiya generatsiyalovchi dasturlar yordamida sayt uchun eksklyuziv vizual kontent tayyorlanmoqda.

E’tiborli jihati hududiy gazetalar ham sun’iy idrok imkoniyatidan foydalanyapti. Misol uchun, Toshkent viloyatida chop etiladigan “Mash’al” gazetasi 2025-yilda uning yordamida alohida suhbat yozib oldi va o‘quvchilar e’tiboriga havola etdi. Shuningdek, sun’iy idrok vositasida chizilgan rasmlar gazeta sahifalarida muntazam berila boshladi.

Radioda innovatsion yechimlar

Audiojurnalistika (radio)da sun’iy idrok texnologiyalari yordamida ovoz ishlab chiqish, montaj, yangiliklar yaratish kabi ko‘plab jarayon avtomatlashtirilmoqda. Buning eng yorqin ko‘rinishlari ovoz sintezi, ovoz tanib olish, ovozlarining turfaligi, ularni istalgancha takomillashtirish, hatto umuman soxta ovoz bilan efriga chiqish texnologiyalaridir.

Ovozni xohlagan taniqli odamning tembri (ovozning jarangdorligi, ohangi)ga moslashtirish mumkin. Tembrdan tashqari ovozning tezligi va baland-pastligini ham o‘zgartira so‘ladi. Milliy audiovizual jurnalistikada bu borada yaxshi natijalar qo‘lga kiritildi. Mashhur aktyor va suxandon, dublyaj san’ati ustasi, O‘zbekiston xalq artisti Afzal Rafiqovning afsonaviy ovozi so‘ngi texnologiyalar asosida qayta tiklandi. Sun’iy idrok yechimlarini ishlab chiqishga ixtisoslashgan mahalliy AIM Lab kompaniyasi Afzal Rafiqovga jarrohlik amaliyotidan so‘ng shikastlangan ovozinı tiklashning innovatsion usulini taklif qildi. Natija esa kutilganidan ham a’lo bo‘ldi.

Zamonaviy radioda ovozi modelar texnologiyasi inson ovozigı juda o‘xshash sun’iy ovoz ishlab chiqishga imkon beradi. Masalan, ElevenLabs, Descript Overdub, Google Text-to-Speech xizmatlari orqali istalgan mashhur insonning ovozi nusxasini yaratish mumkin. Shuningdek, GPT-4 kabi til modellari yordamida yangiliklar, eshittirish ssenariylari, suhbatlar matni avtomatik yoziladi. Adobe Podcast, Auphonic, Cleanvoice.ai kabilar esa ovozdagı shovqinni avtomatik tozalash, pauzalarni yo‘qotish, ohangni tekislash kabi audiomontaj ishlarini bajaradi.

Milliy va xorijiy tajriba haqida gap ketganda, bir faktga e’tibor qaratish o‘rinli: BBC radiosi AI-generated voices orqali 2023-yilda bir nechta tajriba podkasti tayyorlab efriga uzatdi. NPR (National Public Radio, AQSH) sun’iy intellekt yordamida yangiliklar tahrirllovchi, virtual diktör va intellektual montajchini ishlab chiqib, sinovdan o‘tkazdi.

Televideniye zamonaviylik sari

Xususiyatiga ko‘ra, televideniye nafaqat axborot uzatadi, balki estetik, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni ham bajaradi. Ushbu jarayonda sun’iy intellekt ko‘plab ishlarni avtomatlashtirib, kontent yaratishda ham yangi bosqichni boshlab berdi.

Dunyo tajribasiga e’tibor qaratsak, TVda sun’iy intellektidan foydalanish masalasida bugun Yaponiya va Xitoy yetakchilik qilayotganini ko‘ramiz. Masalan, kunchiqar mamlakat birinchilar qatorida ko‘rsatuv olib boruvchi robotlarni yaratdi.

Televideniye tizimida sun’iy idrok orqali ko‘rsatuv olib boruvchilar, robot yoki

animatsion personajlar orqali yangiliklar o‘qish amaliyoti keng tarqalgan. Shuningdek, sun’iy idrok yordamida videomontaj va ko‘rsatuvni efriga tayyorlash, videomateriallarni avtomatik tahlil qilish hamda kerakli sahnalarni tanlab olish, tomoshabinlar xulqini tahlil etish, tomosha statistikalarini o‘rganib, tavsiyalar berish, matnı real vaqt rejimida tarjima qilish ham mumkin.

Yaponiya sun’iy idrok sohasida eng ilg‘or davlatlardan biri. 2018-yilda Tokyo Broadcasting System — TBS telekanalida sun’iy intellekt asosida ishlaydigan Erica nomli sun’iy boshlovchi ilk bor efriga chiqdi. Erica inson mulogotini imitatsiya qilish, yuz ifodalarni ko‘rsatish va yangiliklarni tabiiy ohangda o‘qish imkoniyatiga ega edi. NHK telekanalı esa sun’iy idrokdan tarixiy videolarni rangli formatga o‘tkazish, nutqni tahlil qilish va teloroliklar yaratishda foydalanmoqda.

Xitoyda sun’iy intellekt sohasiga katta mablag‘ sarflanmoqda. 2019-yilda Xitoyning

internet tamog‘i yuksalishida eng asosiy texnologik kuchlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Sun’iy idrok yordamida internet kontentlari avtomatik tahlil qilinadi, filtrlab chiqiladi, foydalanuvchi istaklariga moslashtiriladi.

2024-yil bu borada O‘zbekiston Milliy axborot agentligi — O‘za peshqadamlik qilganini media ekspertlari alohida e’tirof etgan edi. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan robot-muxbir — Sobira Xoldorova (u shunday nomlandi) O‘zbekiston yangiliklarini o‘zbek, ingliz, rus, fransuz, arab, xitoy, nemis, ispan va qozoq tillarida o‘qib bera boshladi.

Kun.uz internet nashri ham sun’iy idrok imkoniyatlaridan samarali foydalanmoqda. Masalan, yirik hajmli matnı ixcham shaklga keltirish va bu jarayonda olib chiqilayotgan mavzuning eng muhim va qiziqarli joylariga e’tibor qaratish amaliyoti bajarilmoqda. Shuningdek, katta xronometrajli videomateriallarni so‘zma-so‘z matnlashtirish borasida ham ijobiy natijalarga erishilgan.



Xinhua agentligi “AI News Anchor” nomli virtual boshlovchi yaratdi. Bu boshlovchi 24 soat davomida yangiliklarni o‘qib, yuz ifodasi va ovoz ohangi bilan tabiiy boshlovchi obraziga kira oldi.

O‘zbekiston televideniyesi ham ushbu yo‘nalishda jahon tajribasini o‘rganib, salohiyatini tobora oshirib bormoqda. Masalan, Uzreport TV va “O‘zbekiston 24” telekanallari xorijiy videolarga subtitr yozishda avtomatik vositalardan foydalanmoqda. Shuningdek, bu telekanallarda axborot tahlili va yangiliklarni filtrlash amaliyoti bajarilmoqda.

“Matnı — ovozga” (Text-to-speech) texnologiyasi yordamida ba’zi yangiliklar bloki yoki hujjatli filmlarning sun’iy ovoz yordamida tayyorlanishiga e’tibor qaratiladi. Masalan, “O‘zbekiston 24” telekanalida ba’zi ijtimoiy-huquqiy roliklar, ko‘rsatuvlar sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan audiofon orqali efriga uzatilayapti.

Vizual kontent yaratishda ham sun’iy idrok qo‘l kelmoqda. Grafik dizayn, animatsiya yoki interaktiv ko‘rsatmalar uchun sun’iy idrok vositalari (masalan, Adobe Firefly yoki RunwayML) ishlatilmoqda. Jumladan, “Milliy TV” va “MYS” telekanallarida tayyorlangan ayrim vizual effektlar sun’iy idrok yordamida avtomatlashtirilgan.

Internet nashrlaridagi texnologik yutuqlar

Internet nashrlari zamonaviy media politrasining ajralmas qismiga aylangan. Sun’iy intellekt esa

U jurnalistikaning asosiy qadriyatları — ishonchlilik, halollik va mustaqillik tamoyillariga zid. Shuning uchun jurnalistlar, tahririyatlar va OAVlar bu muammoni jiddiy qabul qilishi va unga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirishi lozim.

Sun’iy idrok yordamida tayyorlangan materiallar ko‘pincha internetda oldindan mavjud bo‘lgan kontentdan bevosita foydalgan (ko‘chirilgan) holda yaratiladi. Bu esa ba’zan jurnalisting matnı hech qanday tahrirsiz va tekshiruvsiz boricha ko‘chirib olib, o‘z maqolasi sifatida taqdim etishiga olib kelmoqda. Natijada mualliflik huquqi jiddiy tarzda buzilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, har qanday asar muallifning roziligsiz bevosita yoki bilvosita, to‘liq yoki qisman ko‘chirilmasligi lozim.

Sun’iy idrok vositalari orqali yaratilgan kontentda, ayniqsa, ochiq manbalar asosida

yaratilgan matnlarda muallif aniqligi yo‘qolib ketadi. Misol uchun, 2023-yilda New York Times nashriyoti OpenAI tizimini sudga berdi. Sababi kompaniya uning maqolalaridan roziliksiz foydalanib, sun’iy intellektni o‘qitgan. Bu holat xalqaro jurnalistik muhitda mualliflik huquqlarining sun’iy idrok vositalari yordamida buzilishi masalasini yana bir bor dolzarb qilib qo‘ydi.

Yana bir jiddiy holat “halusination” deb ataladi. Bunda sun’iy idrok mavjud bo‘lmagan faktlarni o‘zi to‘qib chiqaradi. Masalan, BBC 2024-yil avvalida sun’iy idrok tomonidan yaratilgan maqolada “manba” sifatida keltirilgan havoalar tekshirilganda, ular aslida mavjud emasligi aniqlangan.

Yuqoridagi kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun o‘zbek tilida ishlovchi AI va NLP vositalarini yaratish va ommalashtirish, jurnalistlar uchun faktchecking va AI bo‘yicha maxsus treninglar tashkil qilish, mahalliy va xalqaro hamkorlikda mediamonitoring platformalarini yaratish, hukumat, OAV va texnologik institutlar o‘rtasida yangicha ko‘priklar o‘rnatish lozim.

Sun’iy idrok yordamida yaratilgan kontentni axborot sifatida tarqatish jurnalisting axloqiy pozitsiyasiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, yolg‘on xabarlar, noto‘g‘ri faktlar yoki boshqa mualliflarning fikrini o‘ziniqı qilib ko‘rsatish faqat jurnalistik etikani emas, balki jamiyatdagi ishonchni ham yemiradi.

O‘zbekiston jurnalistlarining etika kodeksida belgilanishicha, jurnalist axborotni haqqoniy, yaratilgan matnlarda muallif aniqligi yo‘qolib ketadi. Misol uchun, 2023-yilda New York Times nashriyoti OpenAI tizimini sudga berdi. Sababi kompaniya uning maqolalaridan roziliksiz foydalanib, sun’iy intellektni o‘qitgan. Bu holat xalqaro jurnalistik muhitda mualliflik huquqlarining sun’iy idrok vositalari yordamida buzilishi masalasini yana bir bor dolzarb qilib qo‘ydi.

Yana bir jiddiy holat “halusination” deb ataladi. Bunda sun’iy idrok mavjud bo‘lmagan faktlarni o‘zi to‘qib chiqaradi. Masalan, BBC 2024-yil avvalida sun’iy idrok tomonidan yaratilgan maqolada “manba” sifatida keltirilgan havoalar tekshirilganda, ular aslida mavjud emasligi aniqlangan.

Yuqoridagi kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun o‘zbek tilida ishlovchi AI va NLP vositalarini yaratish va ommalashtirish, jurnalistlar uchun faktchecking va AI bo‘yicha maxsus treninglar tashkil qilish, mahalliy va xalqaro hamkorlikda mediamonitoring platformalarini yaratish, hukumat, OAV va texnologik institutlar o‘rtasida yangicha ko‘priklar o‘rnatish lozim.

Sun’iy idrok yordamida yaratilgan kontentni axborot sifatida tarqatish jurnalisting axloqiy pozitsiyasiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, yolg‘on xabarlar, noto‘g‘ri faktlar yoki boshqa mualliflarning fikrini o‘ziniqı qilib ko‘rsatish faqat jurnalistik etikani emas, balki jamiyatdagi ishonchni ham yemiradi.

O‘zbekiston jurnalistlarining etika kodeksida belgilanishicha, jurnalist axborotni haqqoniy,

to‘liq va xolis tarzda yoritishi kerak. Bu qoida sun’iy idrok vositalaridan foydalanganda ham o‘zgarmaydi.

Shaxsiy ma’lumotlarni asrashda sinchkovlik zarur

Katta va o‘rta yoshi jurnalistlar juda yaxshi eslaydi: bundan qariyb 20-25 yil oldin internet endi paydo bo‘lgan davrda ham “bu o‘zi oqmi yoki qorami?”, “foydalimi yoki zararli?” kabi savollar ko‘pchilikni o‘ylantirgan edi. Lekin oradan ko‘p vaqt o‘tmay, bu kabi savollar o‘z-o‘zidan yo‘qoldi. Aniqrög‘i, javobi topildi. Demak, internet yaxshilik uchun ishlatilsa, albatta, yaxshilik olib keladi. Undan yomonlik yo‘lida foydalanilsa, so‘zsiz, aksi bo‘ladi degan xulosaga kelindi.

Aslida, sun’iy aql ham xuddi shunday. Ya’ni ijobiy maqsadda ishlatilsa, juda ko‘p odamga bir paytning o‘zida yaxshilik olib keladi. G‘arazli maqsadda qo‘llansa, juda katta zarar keltirishi turgan gap.

Bu qarash hozirgi axborot xavfsizligiga bevosita bog‘liq. Chunki sun’iy aql vositasida tayyorlangan katta yoki kichik yolg‘on xabar odamlarga nafaqat iqtisodiy, moliyaviy, balki ruhiy hamda salomatlik borasida ham jiddiy talafot yetkazishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shundaki, hozirgidek tarixiy burilishlar jarayonida sun’iy idrok turli yolg‘on axborot va feyklar ko‘payishidan tashqari jamiyat a’zolarining haqoratlanishi, shaxsiy daxlsizligi buzilishi kabi muammolarni ham karrasiga oshirib yuborishi mumkin.

Shu o‘rında O‘zbekistonda oddiy o‘quvchilar haq-huquqlari himoyasi borasida ko‘rilayotgan yangi reallikka mos chora-tadbirlar, qonunchilikning takomillasuvi ayni muddaodir.

Istaymizmi-yo‘qmi, oddiy qidiruv shartlari, topshiriqlar va turli prompt (kerakli rasm yoki matnı olish uchun neyron tarmoqga so‘rov) lar sun’iy idrok xotirasiga mustahkam joylashib qoladi. Natijada u kundalik turmushimizdan faoliyatimizgacha batafsil tasavvurga ega bo‘ladi.

Demak, bu jarayonda shaxsiy ma’lumotlar himoyasiga yanada jiddiy e’tibor berishimiz kerak. Bundan tashqari, biz foydalanayotgan sun’iy idrok dasturi tashqi buzg‘unchi kuchlar, xakerlar xurujiga uchrasa, raqamli qadam ildirimiz (digital footprint) va geolokatsiyalarimizgacha oshkor bo‘lishi ehtimoli katta. Bu esa nafaqat raqamli, balki jismoniy xavf-xatarni bir necha bor oshiradi. Shu bois, sun’iy idrokdan foydalanish jarayonida mazkur jihatni ham inobatga olish zarur.

Sohaning kelajagi: ustuvor vazifalar

Sun’iy intellekt bilan bog‘liq texnologik prognozlar zamonaviy ilm-fan va sanoatning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Har yili yuzlab ilmiy tadqiqotlar, tahliliy hisobotlar va texnologik rivojlanish ssenariylari ushbu mavzuda e’lon qilinadi. Ularıning barchasi insoniyat kelajagida sun’iy intellekt qanday o‘rin tutishi mumkinligini aniqlashga xizmat qiladi.

Eng asosiy farazlar sun’iy idrok tizimlarining salohiyati, o‘rganish tezligi, mustaqil qaror qabul qilish layoqati va inson bilan mulot qot darajasi borasida bo‘lib, bu prognozlar ko‘p hollarda hayratlanarli ssenariylarni ilgari suradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining yaqin kelajakdagi rivoji, birinchi navbatda, generativ tizimlar, ya’ni o‘zi mustaqil tarzda matn, rasm, musiqiy kompozitsiya yoki hatto ilmiy g‘oyalar yaratishga qodir bo‘lgan modellar bilan bog‘liq. Bu kabi tizimlar allaqachon GPT, DALL·E, Midjourney kabi shakllarda ommaga namoyon bo‘lgan va ularning imkoniyati yildan yilga kengaymoqda.

Sun’iy idrok haddan tashqari kuchga ega bo‘lib, uni nazorat qilish mexanizmlari susayib ketsa, insoniyatga xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli ilg‘or tadqiqot markazlari va olimlar sun’iy intellekt xavfsizligi, axloqiy va huquqiy chegaralarini aniqlash ustida ham jiddiy ishlamoqda.

Demak, sun’iy intellekt sohasidagi prognozlar faqat texnologiya haqida emas, balki insoniyatning kelajagi, hayot mazmuni va ijtimoiy qadriyatları haqida chuqur o‘ylashga undovchi masalalardir.

Texnik ishlar esa butunlay sun’iy idrok zimmasiga yuklanadi. Virtual boshlovchilar, realistik AI avlodlar, sintez qilingan ovozi reportajlar, personallashtirilgan yangiliklar tasmasi — bularning barchasi istiqboldagi jurnalistikada real voqeikka aylanishi mumkin.

Biroq texnologiya qay darajada rivojlanmasin, jurnalistikaning obyektivlik, haqqoniylik, aniqlik, muvozanatlilik kabi fundamental tamoyillari buzilmasligi lozim. Sun’iy idrok yordamida yaratilgan kontentda ham bu qoidalar ustuvor bo‘lishi zarur.

Shuning uchun foydalanishda jurnalistlar sun’iy idrok vositalarining imkoniyatini to‘g‘ri baholashi, axborot xavfsizligi, mualliflik huquqlari va axloqiy me’yorlarni e’tibordan chetda qoldirmasligi shart.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MOASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Internet nashrlari zamonaviy media politrasining ajralmas qismiga aylangan. Sun’iy intellekt esa

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 646.
36191 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 20:50